



SOBIROV JAVOXIRXON

O'ZBEKISTONNING
TURKIY DAVLATLAR
TASHKILOTI DOIRASIDA
ISHTIROKI VA
ISTIQBOLLARI

— MONOGRAFIYA —

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK
AKADEMIYASI**

SOBIROV JAVOXIRXON

**O‘ZBEKISTONNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI
DOIRASIDA ISHTIROKI VA ISTIQBOLLARI
(MONOGRAFIYA)**

UO‘K: 327.3

KBK: 66.45(5 O‘z)

Sobirov J.A. O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ishtiroki va istiqbollari. (Monografiya). – T.: «SCIENCE PRINT» MCHJ», – Toshkent, 2026, 160 b

ISBN: 978-9910-5121-6-2

Ushbu monografiya Xalqaro munosabatlar kafedrasining 2025 – 2026 o‘quv yilidagi ilmiy faoliyatiga oid ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida tayyorlandi. Monografiyada Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati va rivojlanish tendensiyalari, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Turkiy davlatlar tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarning yo‘nalishlari va ularning siyosiy jihatlari hamda istiqbollari kabi masalalar tahlil etilgan.

Monografiya oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, talabalari hamda sohaga oid noakademik tashkilotlarning xodimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Turkiy davlatlar tashkilotini o‘rganishga qiziqqan keng omma vakillari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

T.Tursunmuratov – siyosiy fanlar doktori, professor

Taqrizchilar:

F.Jo‘raqulov – siyosiy fanlar doktori, professor.

M.Asrorxo‘jayeva – siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

Monografiya O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy kengashining 2026-yil 27-martdagi 7-sonli bayonnomasi asosida nashrga tavsiya qilingan

© J.A. SOBIROV, 2026.

© «SCIENCE PRINT», 2026.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	4
I-BOB. DAVLATLAR TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR YO‘NALISHINI O‘RGANISHNING UMUM-NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	8
1.1. Davlatlar tashqi siyosiy faoliyatini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	8
1.2. Davlatlar tashqi siyosatida mintaqaviy tashkilotlarning o‘rni.....	21
1.3. Turkiy davlatlar tashkiloti va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari....	33
II-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATI-DA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING O‘RNI.....	52
2.1 O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo turkiy tilli davlatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorligi.....	52
2.2 O‘zbekiston tashqi siyosatida mintaqaviy tashkilotlarning ahamiyati.....	69
2.3 Turkiy davlatlar tashkilotining O‘zbekiston milliy manfaatlar tizimida tutgan o‘rni.....	85
III-BOB. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA O‘ZBEKISTONNING KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIGI RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI.....	103
§ 3.1 Turkiy davlatlar tashkilotida O‘zbekiston Respublikasining ko‘p tomonlama hamkorligi yo‘nalishlari.....	103
§3.2. O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	118
XULOSA.....	137
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	149

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro tashkilotlar dunyo siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, umumiy manfaatlarni uyg'unlashtirish, global va mintaqaviy muammolarga birgalikda yechim topish hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir mamlakat chegaralari doirasidan chiqib ketadigan transmilliy tahdidlar — terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, noqonuniy migratsiya, ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, sog'liqni saqlash sohasidagi pandemiyalar, tabiiy ofatlar va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar kabi muammolarni alohida davlatlar yolg'izlikda hal qila olmaydi. Shu bois, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o'rni va nufuzi tobora ortib bormoqda.

Xalqaro tashkilotlar nafaqat muammo va tahdidlarga qarshi kurashish platformasi, balki davlatlarning siyosiy muloqoti, iqtisodiy integratsiyasi, madaniy-elita hamkorligi va ilmiy-texnik rivojlanishi uchun samarali maydon sifatida ham xizmat qiladi. Mazkur tashkilotlarga a'zolik davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u mamlakatning xalqaro obro'-e'tiborini mustahkamlash, milliy manfaatlarini kengroq miqyosda avvalgi surish hamda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi. Shunday tashkilotlardan biri bo'lgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) so'nggi yillarda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida o'ziga xos o'rin

egallab, mintaqaviy hamkorlikning muhim subyektiga aylanib bormoqda.

TDTning shakllanish va rivojlanish jarayoni faqatgina siyosiy zarurat emas, balki uning tub zahirida umumiy tarix, mushtarak til, urf-odatlar, qadriyatlar, madaniy birlik va mental Yaqinlik mujassam ekanligi bilan ham izohlanadi. Turkiy xalqlarni birlashtirib turgan bu omillar hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay zamin yaratadi. Aynan shu jihat mazkur tashkilotni boshqa mintaqaviy birlashmalardan ajratib turuvchi asosiy ustunliklardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tashkilot doirasida siyosiy maslahatlashuvlar, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport va logistika yoʻlaklarini rivojlantirish, energetika hamkorligini mustahkamlash, madaniy-maʼrifiy almashinuvlarni faollashtirish yoʻnalishlarida izchil ishlar olib borilmoqda.

Mintaqaviy tashkilotlar davlatlar oldida turgan dolzarb vazifalarni aniqlash va ularni birgalikda muhokama qilish, ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha umumiy strategik qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Turkiy davlatlar tashkiloti ham aʼzo mamlakatlarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga oʻzining sezilarli taʼsirini koʻrsatmoqda. Xususan, tashkilot doirasida amalga oshirilayotgan hamkorlik loyihalari barqaror rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, innovatsion taraqqiyot va xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan boʻlib, mintaq davlatlarining umumiy manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Insoniyat bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan global muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bular qatorida geosiyosiy keskinliklarning ortishi, mintaqaviy nizolar, ekologik inqiroz, iqlimning keskin oʻzgarishi, suv resurslarining qisqarishi, pandemiyalar xav-

fi va tabiiy ofatlar oqibatlarining kuchayishi kabi tahdidlar mavjud. Mazkur muammolarga qarshi samarali kurashish faqat keng ko‘lamli xalqaro hamkorlik va birdamlik asosidagina mumkin. Shu jihatdan, Turkiy davlatlar tashkiloti o‘z faoliyatini nafaqat tor mintaqaviy, balki keng global masalalarga yo‘naltirgan holda olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ochiqlik va konstruktivlikka asoslangan pragmatik tashqi siyosatida Turkiy davlatlar tashkiloti muhim va ustuvor ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga a‘zolikka kirish qarori ko‘p asrlik chuqur ildizlarga asoslangan madaniy va tarixiy qardoshlikni yanada rivojlantirish, zamon talablariga muvofiq turkiy tilli davlatlar manfaati, farovonligi nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. O‘zbekistonning mazkur tashkilotda ishtiroki milliy manfaatimizni ham namoyon etadi. Ushbu tashkilotdagi ishtirok milliy manfaatlarimizga qanchalik mos ekani quyidagicha ifodalangan: “Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o‘zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaaddormiz. Hozirgi bosqichda uning faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uyg‘otadigan yo‘nalishlar bo‘yicha ishtirok etishga tayyormiz”¹.

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtiroki mamlakatimiz uchun qator strategik imkoniyatlarni ochib bermoqda. Jumladan, savdo hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, energetika va turizm sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, transc chegaraviy infratuzilma loyihalarini kengaytirish

¹ Мирзиёев Ш.М. Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитида нутқи /Prezident.uz/ 2018
<https://president.uz/oz/lists/view/2012>

hamda ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash kabi yo'nalishlarda sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda.

TDT doirasida ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishi bir qator ilmiy-tadqiqot doiralarida ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Siyosatshunoslar, xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislari, iqtisodchilar va tarixchilar tomonidan ushbu tashkilotning faoliyati, rivojlanish istiqbollari, uning mintaqaviy va global siyosatga ta'siri har tomonlama o'rganilmoqda. Zero, TDT nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy birlik, balki u umumiy qadriyatlar, madaniy Yaqinlik va strategik sheriklikning Yangi modeli sifatida ham talqin qilinmoqda.

Ushbu monografiyada Turkiy davlatlar tashkilotining shakllanish bosqichlari, institutsional tuzilmasi, asosiy faoliyat yo'nalishlari hamda unda O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rni va roli atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizning tashkilot doirasidagi tashabbuslari, avvalgi surayotgan g'oyalari va amaliy takliflari yoritilib, kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ilmiy asosda baholanadi. O'zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlikning strategik ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Shu tariqa, monografiya O'zbekiston va turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning Yangi bosqichi, uning mazmun-mohiyati, mintaqa barqarorligi va taraqqiyotidagi o'rni hamda kelajakdagi imkoniyatlari haqida yaxlit ilmiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

I-BOB. DAVLATLAR TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR YO‘NALISHINI O‘RGANISHNING UMUMNAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Davlatlar tashqi siyosiy faoliyatini tadqiq etishning nazariy asoslari

Davlat siyosatini amalga oshirish ikki yo‘nalishda, ya’ni ichki va tashqi siyosatda o‘z ifodasini topadi. Davlat boshqaruvi obyekti bo‘lgan jamiyat hayotining turli xil - ichki va tashqi sharoitlari davlat siyosatini ichki va tashqi siyosatga mos ravishda ajratish uchun asos yaratadi. Ta’kidlash joizki, bu har ikki yo‘nalish har bir suveren mamlakatlarga xos bo‘lgan qonuniyatdir. Davlatning ichki siyosati o‘zi boshqaradigan jamiyat doirasida uning ijroiya institutlari faoliyatining yo‘nalishlarini, davlatning tashqi siyosati esa uning ijro etuvchi institutlarining boshqa davlatlar bilan munosabatlardagi faoliyati yo‘nalishlarini belgilaydi. Davlatlarning milliy manfaatlari ularning tashqi siyosatida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u yoki bu mamlakat siyosiy tuzumi, davlat tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tabiatini namoyon etishga xizmat qiladi. Davlatning tashqi siyosati o‘z ta’siriga ko‘ra, boshqa davlatlarni u bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga, xususan, hamkorlik qilishga undashga qodir. Natijada, davlatlarning tashqi siyosati xalqaro siyosatni shakllantirish omili bo‘lib, u xalqlarning birgalikda yashashini ta’minlashga qaratilgan siyosiy ta’sirning alohida turini shakllantiradi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston respublikasi tashqi siyosatini asosi sifatida quyidagi fikrlar dolzarb ahamiyat kasb etadi: “O‘zbekiston

Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda avvalgi surish.¹”

Umuman olganda, tashqi siyosat va u bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro munosabatlar masalalari bir qancha mahalliy va xorijiy siyosatshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shu jihatdan olib qaraganda, ularni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Jumladan, G.I.Yuldashevaning “Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari” asarida tashqi siyosatga quyidagicha ta’rif berilgan: tashqi siyosat – davlatning mamlakat tashqarisida, davlatlararo munosabatlarda o‘zining milliy va umumbashariy maqsadlari, xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Tashqi siyosat tushunchasi ko‘p hollarda diplomatiya tushunchasi bilan mushtaraklashib, ayrim hollarda xatto bir-biri bilan chatishma holida ham inikos etiladi.²

X.T.Odilqoriyev va D.X.Razzoqovlarning “Siyosatshunoslik” kitobida esa tashqi siyosat va xalqaro siyosat tushunchalari farqlab

¹ https://old.gov.uz/uz/pages/international_relations

² Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспекти. –Т.: Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. –Б.12.

berilgan: agar tashqi siyosat – davlatning mamlakat tashqarisida, davlatlararo munosabatlarda o‘z milliy va umumbashariy maqsadlarini, xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan faoliyatidan iborat bo‘lsa, xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlarda ishtirok etayotgan davlatlar, subyektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro me’yorlar, qadriyatlar asosida o‘zaro munosabatlarini ushlab turishga qaratilgan faoliyatdir.¹

Yuqoridagiga o‘xshash fikrlar S.Jo‘raev ma’sul muharrirligi ostida 2006-yilda TDIU (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) hamda TDYUI (Toshkent davlat yuridik instituti) hamkorligida nashr etilgan “Politologiya” o‘quv qo‘llanmasida tashqi siyosat obyektiv jarayon ekanligiga alohida urg‘u qaratilgan: Davlatlarning tashqi siyosatiga mos bo‘lgan asosiy va muhim xususiyatlaridan biri tashqi siyosatning obyektiv mohiyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi. Tashqi siyosat u yoki bu mamlakatlardagi biron bir siyosiy kuchining xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda davlatlarning tashqi munosabatlarida ishtirok qilish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Tashqi siyosatga xos bo‘lgan obyektivlik xususiyati davlatlarning xalqaro maydonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga munosabat bildirishida ham namoyon bo‘ladi. Bu munosabat, bir tomondan, har bir davlatning xohish-istagiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, u jahon siyosatidan chetda qolib ketmasligi zarurligidan kelib chiqadi.²

¹ Одилқориев Х. Т., Раззоқов Д. Х. Сиёсатшунослик //Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.-2012,— Б. — 74.

² Политология. Ўқув-қўлланма/Маъсул муҳаррир: с.ф.д., профессор С.Жураев. -Т.:ТДЮИ нашриёти, 2006. —Б. 32

Shuningdek, mazkur asarda umumiydashgan xulosa sifatida tashqi siyosat tushunchasiga quyidagicha izoh berib o'tiladi: demak, tashqi siyosat tushunchasi davlat hokimiyatining xalqaro munosabatlarga nisbatan ishlab chiqilib amalga oshiriladigan siyosat kursini anglatadi. Tashqi siyosatni amalga oshirish vositalaridan biri diplomatiyadir.

Aynan shu o'rinda diplomatiya tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tish joiz bo'ladi. Yuqorida qayd etilganidek, tashqi siyosatni olib borishning eng optimal ko'rinishlaridan biri diplomatiya hisoblanadi. Diplomatiya tushunchasini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagicha izohlagan edi: "Diplomatiya – bu uyushtirish, tashkil qilish uchun juda ko'p o'ylash kerak bo'lgan soha. Shuningdek, o'zaro til topishish, odamlarni Yangi zamonga chorlash, da'vat etish, har tomonlama ko'ndirish, ishontirish, do'stingni, hamkoringni, qo'shningni ulug' maqsadlar yo'lida yo'ldoshlik qilishga ko'ndirish – jahonda eng ma'suliyatli va olijanob yumushdir.¹"

Bundan tashqari, S.Nosirxo'jaev, T.Sultonov, M.Zaripov, R.Xalimmetovalarning 2003-yilda nashr etilgan "Siyosatshunoslik" o'quv qo'llanmasida esa diplomatiya atamasi quyidagicha izohlanadi: diplomatiya – davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish usullaridan biri. Diplomatik davlat rahbarlari, hukumatlar, davlat tashqi ishlar organlari va bevosita diplomatlarning tashqi siyosat maqsad va vazifalarini amalga oshirishga hamda o'z davlatining va xorijdagi

¹ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш — давр талаби // Тошкент «Ўзбекистон» — Т., 1997. — Б. 21.

ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga yordam beruvchi rasmiy faoliyati shaklida olib boriladi.¹

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tashqi siyosat munosabatlari ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

1.Davlatlar ichki ko‘rinishidagi tashqi siyosat munosabatlari;

2.Tashqi ko‘rinishdagi tashqi siyosat munosabatlari.²

Davlatlar ichki ko‘rinishidagi tashqi siyosat munosabatlari odatda, muayyan davlatning tashqi siyosat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Qayd etish lozimki, davlatlar ichki ko‘rinishidagi tashqi siyosat munosabatlari regulyatorlik xususiyatiga ega bo‘lib, u doimo tashqi ko‘rinishdagi tashqi siyosat munosabatlarini tartibga solib turadi va uning yo‘nalishini belgilab beradi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda va ko‘pgina boshqa davlatlarda tashqi siyosat idoralari tashqi ishlar vazirligi deb nomlanadi. Ayrim davlatlarda esa mazkur idora boshqacha nomlanadi, masalan, AQSHda Davlat departamenti, Angliyada Forin ofis (ingliz tilida “Foreign office”), Fransiya Ke d’Orse (Fransiya Tashqi aloqalar vazirligi). Unutmaslik lozimki, nomlanishi boshqa boshqa bo‘lib, ularning nomlari o‘zgargani bilan maqsad va vazifalari o‘zgarmaydi.

Ba’zi G‘arb olimlarining fikricha tashqi siyosat – bu mamlakat o‘zining mutlaq yurisdiksiyasidan tashqarida bo‘lgan milliy maqsadlarga erishishga harakat qiladigan vositadir. Ko‘p yillar

¹ Носирхўжаев С, Султонов Т, Зарипов М, Халимметова Р. “Сиёсатшунослик” ўқув қўлланма. — Т., 1997. — Б. 38.

² Москаленко В.А. Внешнеполитическая деятельность государства: определение, функции, направления и эффективность // Теории и проблемы политических исследований. 2021. Том 10. № 5А. С. 141-161. DOI: 10.34670/AR.2021.58.91.014

davomida aksariyat G‘arb davlatlarining tashqi siyosati, iloji bo‘lsa, notinch va noqulay ichki siyosatdan ustun keldi¹.

Tashqi ko‘rinishdagi tashqi siyosat munosabatlari muayyan davlatning tashqi siyosat idoralari tomonida diplomatiya vositasida amalga oshiriladi. Shu boisdan bu faoliyatni amalga oshirishi uchun davlat boshqa mamlakatlarda o‘zining diplomatik vakolatxonalariga ega bo‘lishi lozim.

Tashqi siyosat ichki siyosatning kengayishi bo‘lib, u hokimiyat vakumida amalga oshirilmaydi, balki turli davlat idoralarining hissasi va ishtirokini talab qiladi. Shu sababli, davlatning tashqi siyosatiga ta’sir etuvchi milliy idoralarning tasavvurlari, motivlari, pozitsiyalari va kuchlarini tekshirish zarurati tug‘iladi. Tashqi siyosat, shuningdek, davlat organlarining ma’lum bir masala bo‘yicha pozitsiyasiga va bu masala ichki siyosatda qanday yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq.²

Tashqi siyosat va u bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda xalqaro hamda millatlararo munosabatlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu borada G.I.Yuldashevaning “Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari” asarida xalqaro munosabatlar tushunchasi quyidagicha izohlangan: xalqaro munosabatlar – bu davlat tizimlari va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar hamda munosabatlar, shuningdek jahon maydonida harakatlanuvchi asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va jamoatchilik harakatlari, umuman, keng ma’noda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar majmuidir.

¹ Boyce, P.J.. (2024). The Foreign Policy Process. 10.1017/9781009458351.003.

² <https://doi.org/10.1016/B978-0-443-18707-0.00011-4>

Tashqi siyosat - bu milliy hukumatlar o'zlarining diplomatik faoliyati va boshqa davlatlar bilan munosabatlarini yo'naltiradigan asosdir. Mamlakatning tashqi siyosati uning e'tiqod va intilishlarini o'zida aks ettirib, jahon miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.¹

Bundan tashqari xalqaro munosabatlar (international relations) tushunchasiga bir qancha G'arb olimlari ham to'xtalib o'tgan edilar. Shu jumladan, fransuz faylasufi va sotsiologi R.Aronning fikricha, xalqaro munosabatlar – siyosiy birliklar o'rtasidagi aloqalardir”. Shunday qilib, u uchun xalqaro munosabatlar – bu, birinchi navbatda, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, yoki “diplomat” va “harbiy” o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuvdir.²

Fransuz tadqiqotchisi M.Merl nazariyasiga ko'ra, xalqaro munosabatlar – bu “chegaralarni kesib o'tuvchi, yoki chegaralarni kesib o'tishga moyilligi bo'lgan kelishuv va oqimlarning majmuasidir”³

Millatlararo munosabatlar tushunchasini o'rganish ham tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu atamani V.Aliyev, I.Ergashev, T.Hoshimov, O.Yo'ldashyev Politologiya darsligida quyidagicha izohlagan edilar: millatlararo munosabatlar siyosatning eng asosiy sohalaridan hisoblanadi. Hozirgi yer shari aholisini asosini xilma-xil millatlar tashkil etgan bo'lib,

¹ Obah-Akpogwogaha, Nelson. (2024). Fundamentals of Diplomacy and Foreign Policy. https://www.researchgate.net/publication/381258751_Fundamentals_of_Diplomacy_and_Foreign_Policy/citation/download

² Полякова Наталья Валерьевна (2016). Раймон Арон: интеллектуал в политике и политика интеллектуала. Вестник Санкт-Петербургского университета. Международные отношения, (3), 45-53.

³ Вдовина Ирена Сергеевна (2008). М. Мерло-Понти: философия плоти и проблема социального. История философии, (13), 49-68.

ularning har biri o'ziga xos xususiyat va qiziqishlarga ega. Xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni ularni tartibga solish davlat milliy siyosatining mohiyatini tashkil etadi. U ko'p millatli davlatlarda yanada keng miqyosli va ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur asarda mualliflar jamoasi millatlararo munosabatlarga izoh berar ekanlar, bu borada muhim ahamiyatga ega bo'lgan milliy siyosat masalasiga ham to'xtalib o'tgan edilar. Ularning nazariyasiga ko'ra, milliy siyosat – tamoyillar, me'yorlar, qoidalar yig'indisi bo'lib, uning yordamida milliy munosabatlarni boshqarish amalga oshiriladi. Milliy siyosat davlat tomonidan amalga oshirilar ekan, demak, xalq va millatlar o'rtasidagi munosabatlar siyosiy va yuridik hujjatlar orqali tartibga solinadi.

Tashqi siyosat haqida fikr yuritar ekanmiz, uni amalga oshirishning shakllari haqida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardan iborat:

Davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi;

Jahon va mintaqaviy xalqaro tashkilotlarda davlatning doimiy vakolatxonasining ochilishi yoki davlatning ulardagi a'zoligi;

Davlatga do'stona munosabatda bo'lgan xorijiy siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik.

Bundan tashqari, tashqi siyosat qaday yuritilishiga ko'ra bir qancha turlardan iborat bo'ladi:

1. Agressiv siyosat – bu tashqi siyosat davlat ichki muammolarini hal etish hamda o'z ta'sir doiralarini kengaytirish jarayonida tashqi siyosat vositasidan foydalanishda namoyon bo'ladi. Bu kabi yo'lni

qo‘llaydigan davlatlar, asosan, agressiv ekspansiya metodlaridan keng foydalanishadi.

2. Konservativ siyosat – bu, asosan, jahon hamjamiyatida oldingi o‘z o‘rnini yo‘qotgan va uni har qanday usul hamda yo‘llar orqali saqlab qolishga intilayotgan sobiq buyuk davlatlar tomonidan olib boriladi.

3. Aktiv siyosat – davlat xalqaro munosabatlarning asosiy subyekti sifatida o‘z manfaatlarini himoya qilishi hamda o‘z ichki va tashqi ishlarida o‘zaro hamjihatlikni ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

4. Passiv siyosat – bu nisbatan zaif, kam rivojlangan davlatlarga xos bo‘lib, ular faqatgina o‘z suverenitetini saqlab qolish maqsadida xalqaro muhitga moslashishga majbur bo‘ladi.

Tashqi siyosatning bir necha asosiy subyektlari mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Davlat hamda uning institutlari;

Siyosiy liderlar va davlat rahbarlari;

Siyosiy partiyalar va harakatlar;

Nodavlat tashkilotlar, nosiyosiy birlashma va kengashlar.

Davlatlar tashqi siyosatining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda bir davlatning boshqasiga nisbatan tashqi siyosatda bosim o‘tkazishga urinish ro‘y berib turgan. Bunday harakatlar oqibati ko‘p hollarda urushlar bilan tugagan. Ammo bunga barcha mamlakatlar tashqi siyosatiga xos xususiyat deb qaramaslik kerak. Dunyoda ko‘pchilik davlatlar o‘zining tashqi siyosiy faoliyatini boshqa davlatlar bilan teng huquqli hamkorlik asosida olib borgan. Shuning uchun ham ko‘pchilik davlatlar tashqi siyosat sohasida boshqa davlatlarga bosim

o'tkazmaslikka harakat qilib kelmoqda va bu sohadagi har qanday tashabbusni qo'llab-quvvatlamoda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatida bu tamoyilga og'ishmay amal qilish asosida jahon hamjamiyatida alohida nufuzga ega bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda har bir davlat xalqaro huquq me'yorlar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va o'zining milliy qonunchiligi asosida tashqi siyosatini olib boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

Davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;

Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;

Inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

Ichki milliy qonunlar va huquqiy me'yorlardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va me'yorlarining ustuvorligi;

Davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;

Tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

Davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan Yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida va adekvat javob choralari orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.¹

Shu jihatlar hisobga olingan holda, 2017-yil 7-fevralda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini 5-ustuvor yo‘nalishi bevosita tashqi siyosat masalasiga bag‘ishlanib, unda Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan:

– davlat mustaqilligi va suverenitetini mustaxkamlash, mamlakatning halqaro munosabatlar to‘la huquqli subyekti sifatida o‘rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik mintaqasini vujudga keltirish;

¹ 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола [Матн] / Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети. – Т.: «Манавият» нашриёти, 2017. – Б.218

- O‘zbekiston Respublikasining halqaro nufuzini mustahkamlash, jaxon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish;

- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini me’yoriy-huquqiy bazasini hamda halqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasining demilitatsiya va demarkatsiya masalalarini hal etish.¹

Yangi O‘zbekiston strategiyasida quyidagicha ta’kidlangan: Mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustivor yo‘nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat. Ular quyidagilar:

- Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;

- Jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘p qirrali tizimini shakllantirish;

- O‘zbekistonning mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro tashabbuslarini avvalgi surish;

¹ <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>

- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko‘maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etishda faol ko‘mak berish;
- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko‘rsatish;
- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko‘maklashish;
- xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta’minlash.¹

Muxtasar qilib aytganda, tashqi siyosat ko‘p qirrali vazifalarni bajarib, ayrim jihatlarda davlatlarning ichki barqarorligining asosi sifatida ham maydonga chiqishi mumkin. Bunda davlatlarning o‘z tashqi siyosatlarini chuqur o‘ylagan holda amalga oshirishlari kerak bo‘ladi. Hozirda har bir davlatning tashqi siyosati xalqaro munosabatlarda alohida e’tiborni talab qiladi. Bugungi xalqaro munosabatlarni samarali kechishida har bir davlatning o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqaro huquq me’yorlarini hurmat qilishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati muhim o‘rin tutadi. Ayrim ekspertlarning fikriga ko‘ra esa, xalqaro munosabatlarda katta ta’sirga ega bo‘lgan bir necha davlatlarning tashqi siyosatlarini

¹ <https://lex.uz/docs/5841063?ONDATE2=29.01.2022&action=compare>

o'rganish orqali joriy xalqaro munosabatlar qay tarzda sodir bo'layotganligini tahlil qilish mumkin.

Tashqi siyosatga demokratik bo'yoqlarning berilishi bilan davlatlarning o'zlarini donor davlat sifatida e'tirof etishlari, ularning asl maqsadlarini to'liq anglashga kamlik qiladi. Ayniqsa hozirgi davrda turli tuzumlar va manfaatlarga ega davlatlar tashqi siyosatni o'rganish xalqaro munosabatlarning kelajagini o'rganish demakdir. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, tashqi siyosatni xalqaro siyosat, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va millatlararo munosabatlarsiz ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Ularni ayni bir xil tushunchalar bo'lmasa-da, biri ikkinchisini to'ldirish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, tashqi siyosat bilan bog'liq bo'lgan yuqorida qayd etilgan tushunchalar amaliy jarayonlarda bevosita ishtirok etadilar yoki nazariyotda tashqi siyosat tushunchasini yanada kengroq o'rganishga, uning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetishga xizmat qiladi.

1.2. Davlatlar tashqi siyosatida mintaqaviy tashkilotlarning o'rni

Davlatlar hamkorlik uchun vosita sifatida xalqaro tashkilotlardan foydalanadilar. Bu sababga ko'ra, davlatlar avtonomiyalarini cheklashi yoki uzaytirishi, ularning faoliyatiga aralashishi, ularni qayta tuzishi yoki tarqatib yuborishi mumkin. Davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish istagining asosiy sabablaridan biri, ular har doim ham mavjud bo'lmagan tajriba, bilim, ma'lumot, vaqt va resurslarni talab qiladigan masalalarda o'z vakolatlarini topshirish va shu orqali duch keladigan muammolarni hal etish xisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar

qonuniylikka ega bo'lgan va davlat faoliyatining qonuniyligiga ta'sir qiladigan harakatlarni amalga oshiradilar. Hatto markazlashtirish ham ular orasidagi murakkab o'zaro ta'sirlar sharoitida davlatlarning siyosiy tasavvurini o'zgartirishi va boshqa yo'nalishga burib yuborishi mumkin.

Xalqaro tuzilmalar xalqaro xulq-atvorni shakllantirish qoidalari, me'yorlari, tamoyillari va jarayonlari sifatida ta'riflanishi mumkin. Tuzilma so'zi xalqaro boshqaruvni chuqur ma'noda tushuntirish uchun ishlatiladi. Xalqaro tuzilma – xalqaro dunyodagi qoidalar hukumat harakatlarini qanday shakllantirishi mumkinligiga e'tibor qaratadi.

Bu yerda xalqaro tuzilmaning to'rt elementi, tamoyillari va me'yorlari har bir aniq masala bo'yicha vakolatli tartib sifatida me'yortiv asosli tuzilma va qoidalar hamda qarorlar qabul qilish jarayoniga aylanadi. Xalqaro tuzilmalarni o'rganish me'yorlar va qoidalar davlatlarning xatti-harakatlarini qanday shakllantirishi orqali xalqaro tashkilotni tushunishga katta hissa qo'shdi.

Xalqaro tashkilot tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu bo'yicha bir qancha qarashlar mavjud. Realizm nuqtai nazaridan xalqaro tashkilot - bu xalqaro standart sifatida bajarilishi kerak bo'lgan turli qoidalarga ega bo'lgan institut deb hisoblaydi. xalqaro tashkilotni a'zo davlatlarni mavjud qoidalarga ergashishga va ularga rioya qilishga majburlaydigan forum deb sanaydi.

Realizmni tahlil qilish birligi ikki narsa, ya'ni davlat va nodavlat nuqtai nazaridan iborat. Realizm davlatni xalqaro tashkilotning kaliti deb hisoblaydi, shuning uchun xalqaro tashkilotning xalqaro munosabatlarga kiritilgan barcha yo'llari davlat qarorlari hisoblanadi.

Boshqa tarafdin nodavlat tashkilotlar tomonidan xalqaro tashkilot siyosat jarayoniga hech qanday aloqasi bo'lmagan qo'shimcha omil sifatida qaraladi.

Shuningdek, xalqaro tashkilot bir mamlakatda davlat siyosati uchun to'siq bo'lgani aytilgan. Masalan, xalqaro tashkilot haqidagi realizm nuqtai nazari bo'yicha, 2019-yilda sodir bo'lgan Sudandagi genotsid va qirg'inni misol qilib keltirishadi. 2004-yilda genotsid Sudan fuqarolarini jilovlashga muvaffaq bo'ldi, lekin 2019-yilda Umar Al-Bashir xuddi shunday qaror qabul qilganida, xalqaro tashkilotlar, ya'ni Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan o'tkazilgan HJA (Xalqaro Jinoyat va Adolat) jazosiga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHUD) dagi inson huquqlarining buzilishi sabab bo'lgan deya ko'rsatiladi¹. Bu yerda shuni ko'rish mumkinki, insoniyatning bu standartiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi sifatida Sudan amal qilishi va unga rioya qilishi kerak.

Liberal nazariyalarga to'xtaladigan bo'lsak, davlatlararo tizim, inson tabiati va ichki jamiyat haqida ba'zi taxminlarni bildiradi. Aslida, liberal institutsionalistlar inson tabiatiga e'tibor berishadi, tijorat pasifistlari esa ichki jamiyatga e'tibor berishadi, va nihoyat, liberal internatsionalistlar davlatlararo tizimga e'tibor berishadi.

Liberalistlar davlatlar muhimligini qabul qilishadi, lekin ular hukumatlararo tashkilotlar (HT), transmilliy ijrochilar, shuningdek transmilliy korporatsiyalar (TMK) kabi boshqa muhim rol o'ynovchilar borligiga ishonishadi. Liberalistlarning fikricha, bunday ijrochilar kun tartibini belgilash kabi sohalarga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

¹ https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/CourtRecords/CR2010_01223.PDF

Neoliberalistlar, davlatlar jahon siyosatining asosiy yagona unitar ratsional ijrochilari degan dalillarni qabul qilayotganini ko'ramiz, bu yerda anarxiya davlatning afzalliklari va harakatlarini shakllantiruvchi asosiy kuchdir.

Liberalistlarning taxminlari mojarodan ko'ra ko'proq hamkorlikka qaratilgan. Ular demokratik rejimlar bilan demokratik bo'lmagan rejimlarni farqlashga moyildirlar, shuning uchun liberalistlarning ko'pchiligi uchun urush holatini faqat demokratiyalar o'rtasida paydo bo'lgan alohida tinchlikdan tashqarida mavjud vaziyat sifatida qabul qiladilar. Liberallar, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikda xalqaro institutlar asosiy rol o'ynaydi, deb hisoblaydilar. Xalqaro institutlar va o'zaro bog'liqlikning kuchayishi (shu jumladan iqtisodiy va madaniy almashinuvlar) bilan davlatlar nizolarni kamaytirish imkoniyatiga ega.

Konstruktivistlar, boshqa yondashuvlardan farqli o'laroq, xalqaro institutlar haqida gap ketganda, iqtisodga kamroq to'xtalib o'tadi. Ular qoidalar va me'yorlarning tuzilishiga e'tibor qaratadilar. Masalan, xalqaro huquqda, agar davlat bayonot yoki harakat qilmoqchi bo'lsa, davlatning xarakteridan qat'i nazar, qoidalarga rioya qilishi majbur deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, konstruktivistlar ta'kidlashlaricha, xalqaro institutlar qoidalarga muvofiq bo'lgan o'zaro munosabatlar tufayli davlatlarning o'ziga xosligi va manfaatlariga ta'sir qilishi va o'zgartirishi mumkin.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlarda asosiy rol o'ynovchi aktor sifatida paydo bo'la boshladi. Bu xalqaro siyosiy munosabatlar va rasmiy tashkiliy kelishuvlar xalqaro munosabatlarning bir qismiga aylangan davrning boshlanishi

edi. Birlashgan millatlar tashkiloti Ikkinchi Jahon urishi yakunidan keyin xalqaro tartibotning asosi bo'lishi kerak edi. Uning tashkilotchilari tomonidan Millatlar ligasining kamchiliklaridan holi tarzda faoliyat olib borishi kutilgan edi.¹

Keyinchalik, Sovuq Urush davri, Vetnam urushi, Xalqaro moliyaviy inqiroz va o'zaro bog'liqlik muammosi kabi ko'plab xalqaro tortishuvlar sodir bo'lganida, ko'plab mutaxassislar yechim sifatida xalqaro tashkilotlar taklif etildi. Buning asosiy sababi shundaki, dunyo yagona qudratli davlatdan yordam olishni emas, balki muammolarni hal qilishda jamoaviy harakatga juda muhtoj edi. Shu sababli, kelishmovchiliklarni hal qilishda xalqaro universal tashkilot bo'lmish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomalari kabi ko'p tomonlama bitimlari muhim rol o'ynadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining global maqsadlariga erishishda mintaqaviy tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Ular a'zo davlatlarni barqaror rivojlanishi bo'yicha harakatlar rejalarini ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlashlari mumkin, shuningdek, ular ushbu majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilishda ham ahamiyati juda katta.

Mintaqaviy tashkilotlar a'zo davlatlarining fuqarolari hayoti va farovonligi, shu jumladan, o'z mintaqalarida barqaror demokratik jarayonlarni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi. Mintaqaviy tashkilotlar o'z a'zo davlatlariga milliy miqyosda aniq harakatlarni ishlab chiqishda yordam berish orqali barqaror rivojlanish siyosatini samarali o'tishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muvaffaqiyatga erishish uchun

¹ Ланцов С. А. Место и роль ООН в формировании и эволюции международного порядка ПОЛИТЭКС. 2015. Том 11, № 3 <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-i-rol-oon-v-formirovanii-i-evolyutsii-mezhdunarodnogo-poryadka-posle-okonchaniya-vtoroy-mirovoy-voyny/viewer>

mintaqaviy tashkilotlar fuqarolarni o‘z institutlariga Yaqinlashtirish va ularning siyosati markazida bo‘lish uchun fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim. Mintaqaviy tashkilotlar a‘zo davlatlar fuqarolari bilan Yaqinlashishi, ular odamlarning ishonch va hurmatini qozonishlari kerak. A‘zo davlatlar fuqarolari mintaqaviy tashkilotlar ularning tinchligi va farovonligiga qanday hissa qo‘shayotganini bilishlari va tushunishlari kerak. Buni anglash uchun mintaqaviy tashkilotlar ommaviy diplomatiyani rivojlantirishi va tashkilot faoliyati bilan keng ommani tanishtirishi lozim.

Hozirgi vaqtda mintaqaviy tashkilotlar fuqarolar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan muloqot qilish uchun forumlar va ochiq maydonlarni institutsionalizatsiya qilish ustida ishlaymoqda. Shuni ta‘kidlash kerakki, demokratiya, barqaror rivojlanish, xavfsizlik va inson huquqlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mintaqaviy maslahatlashuvlar, o‘tkazib turilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, mintaqaviy tashkilotlar butun dunyoda o‘tkaziladigan saylov kuzatuv missiyalari kabi loyihalarni amalga oshirish uchun fuqarolar bilan Yaqindan hamkorlik qilishining yaxshi namunasidir.¹

Mintaqaviy tashkilotlar borgan sari turli gumanitar masalalar bilan shug‘ullanmoqdalar va xalqaro tashkilotlar ular falokatlarga qarshi kurashish, mojarolarga vositachilik qilish va tinchlikparvarlik operatsiyalarini o‘tkazish ishlarida yordam berishidan umidvor. Ular bunday holatlarda yordam qilgan bir qancha mashhur misollar bor. Janubi - Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) Birlashgan

¹ <https://www.idea.int/publications/catalogue/integrity-elections-role-regional-organizations>

Millatlar Tashkiloti va Myanma hukumati bilan Yaqindan hamkorlik qilib, xorijiy yordam agentliklarining mamlakatga kirib kelishiga va 2008-yilda "Nargis" siklonining oqibatlarini bartaraf etishga yordam berdi. 2011-yilda Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi (FKHK) Yamandagi zo'ravonlikni to'xtatish va 33 yillik hukmdorni hokimiyatdan ketishga undagan Yamandagi mojaroni hal qilish bo'yicha muzokaralarga yordam berdi. 2013-yilda G'arbiy Afrika Davlatlari Iqtisodiy Hamjamiyati (YeCOWAS) harbiy to'ntarish va shimolda qo'zg'olon boshlanganidan keyin mamlakat xavfsizligini ta'minlashda Fransiya va Chad kuchlari bilan ishlash uchun Maliga tinchlikparvar kuchlarini yubordi. Shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar gumanitar natijalarga unchalik ahamiyatli bo'lmagan tarzda hissa qo'shgan ko'plab holatlar mavjud.

Har qanday munozarada mintaqaviy tashkilotlar bir-biri bilan chegaradosh hududlarni ifodalovchi davlatlararo rasmiy tartibga soluvchilar ekani haqidagi asosiy haqiqatni tan olish kerak, lekin har bir mintaqaviy tashkilot o'ziga xosdir va tarix, qadriyatlar, madaniyatlar va vakolatlarning to'plamini ifodalaydi. "Mintaqaviy tashkilotlar" toifasiga juda kam taalluqli bo'lgan, bu haqiqatni milliy, ko'p tomonlama nodavlat organlari "paydo bo'layotgan" aktorlar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini aniqlaydilar.

Arab Davlatlari Ligasi (1945) va Amerika davlatlari tashkiloti (1948) kabi mintaqaviy tashkilotlar Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'la boshladi. Ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi dekolonizatsiya natijasida vujudga keldi, bu esa mamlakatlarni birdamlikka va sezilgan tahdidlarga javoban birlashishga undadi (masalan, Janubiy

Afrika Taraqqiyot Jamiyati misolida Janubiy Afrika irqchilik tashkiloti). Qurgʻoqchilik va rivojlanish boʻyicha hukumat maʼmuriyati (QRBHM) Sharqiy Afrikada asosan tariflar, immigratsiya, chegaralarni boshqarish va xavfsizlik kabi muammolarni hal qiladigan siyosiy va iqtisodiy organ boʻlgan.

Afrikaning Sahroi Kabir janubidagi janjallardan soʻng, Afrika Ittifoqi (AI) va uning mintaqaviy iqtisodiy hamjamiyatlarida nizolarni boshqarish va oldini olish tashkilotlari koʻpayib ketdi. Bu 2003-yilda Aining Tinchlik va xavfsizlik kengashiga qoʻshimcha ravishda, sharqiy, gʻarbiy va janubiy Afrikaning mintaqaviy tashkilotlarida nizolarni ogohlantirish tizimlarini oʻz ichiga qamrab oldi.

Yaqinlashib kelayotgan tabiiy ofatlar xavfini yanada kamaytirish boʻyicha Xyogo amaliyot asoslari (HAA) va 2004-yilda Hind okeanidagi sunami tufayli Osiyo-Tinch okeani mintaqaviy tashkilotlari tabiiy ofatlar atrofidagi mintaqaviy hamkorlikni tezlashtirdi.

ASEAN ning Favqulodda vaziyatlar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish boʻyicha kelishuv (FVBBK) 2005-yilda tuzilgan va SAARC bir yildan soʻng oʻzining Tabiiy ofatlarga qarshi kurashish markazini tashkil qilgan¹. AI, Arab ligasi, Islom hamkorlik tashkiloti (OIC) va boshqalar ham shu kabi qadam tashladi.

Yaqinda mintaqaviy gumanitar institutlar Yangi shaklga oʻtdi. Boshlangʻich organlar, odatda, maxsus masalalarga xos boʻlib, koʻpincha yirik xalqaro tendensiyalar va koʻp tomonlama kelishuvlarga amal qilgan boʻlsalar-da, mintaqaviy tashkilotlar gumanitar masalalarga kengroq toifa sifatida qaray boshladilar. Masalan, ASEAN

¹ <https://agreement.asean.org/media/download/20220330063139.pdf>

IYOM markazi deb nomlanuvchi Insonparvarlik yordamini muvofiqlashtiruvchi markazini tashkil etdi, o'sha yili Avstraliya ittifoqi – AI Insonparvarlik siyosati asoslarini qabul qildi. Islom hamkorlik tashkiloti – IHT hozirda keng ko'lamli Xalqaro hamkorlik va insonparvarlik masalalar boshqarmasiga va ASEAN kabi maxsus insonparvarlik moliyalashtirish mexanizmiga ega.

Bunday o'zgarishlar, mintaqaga ko'proq tegishli bo'lgan va BMT jarayonlaridan kamroq qo'llab-quvvatlanuvchi, Yangi va yetuk mintaqaviy gumanitar arxitekturani ko'rsatishi mumkin. Mintaqaviy gumanitar institutlar - moliyaviy ma'lumotlari kamdan-kam hollarda ma'lum bo'ladi – mintaq davlatlari tomonidan emas, balki chet ellik donorlar tomonidan moliyalashtirishda davom etmoqda. Masalan, Tinch Okeani Hamjamiyati kotibiyati tomonidan boshqariladigan Tinch okeanidagi tabiiy ofatlarni kuzatish va boshqarishning asosiy markazi o'z budjetining katta qismini Yevropa ittifoqidan oladi. Xuddi shunday holatda, Tabiiy ofatlarning oldini olish markazi AQSH, Xitoy, Yaponiya, Ispaniya va Shveysariya hukumatlari, shuningdek, Yevropa komissiyasi, Jahon banki, Xalqaro qizil xoch va Qizil yarim oy jamiyatlari federatsiyasi va bir qator nodavlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladi. Shunday qilib, tahlilchilar bu institutlar haqiqatan ham mintaqaviy muammolarga emas, balki donorlarning ustuvorliklari qay darajada ekaniga e'tibor qaratayotgani haqida to'xtalishmoqda.

Mintaqaviy insonparvarlik tashabbuslarning Yaqin oradagi tarqalishi juda yaxshi deb xabar qilingan bo'lsa-da, bu institutlar amalda nimalarga erishgani haqida juda kam narsa ma'lum. Hamma uchun ochiq bo'lgan hujjatlarning yetishmasligi (baholash, yillik hisobotlar)

javob berishni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqot adabiyotlari va mintaqaviy tashkilotlarning o'z materiallarini ko'rib chiqish qaysi subyektlar qaysi turdagi faoliyat bilan shug'ullanganini tushunishga imkon beradi.

Ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar qochqinlarga qarshi siyosat yuritsa-da, kam odam qochqinlarga yordamni muvofiqlashtirish, qochqinlar masalalarini o'rganish yoki gumanitar agentliklarning ehtiyojlarini qondirish uchun donorlik jamg'armalarini jalb qilish bilan shug'ullangan. Ular qaerda muxojir qochoqlar bilan bevosita aloqada bo'lishgan bo'lsa, mintaqaviy tashkilotlar odatda ramziy yordam ko'rsatganlar. Masalan, ECOWAC G'arbiy Afrikadagi qochqinlarga oziq-ovqat yordami sifatida 15 million dollargacha mablag' ajratdi, lekin oziq-ovqat Afrika taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilgan va Jahon oziq-ovqat dasturi tomonidan tarqatilgan. Xuddi shunday holda, Arab ligasi Iordaniyaga Suriyalik qochqinlar manfaati uchun oz miqdordagi tibbiy buyumlarni yetkazib berishni tashkil qilgan.

Mintaqaviy tashkilotlar ixtilofli ziddiyatlar va nizolarni boshqarish sohasi bilan tanlov holati bo'lsa ham shug'ullanishdi. Masalan, IHT Filippindagi Mindanao shahridagi keskinlikni pasaytirishga va Somalida yordam olish bo'yicha muzokaralarga yordam berdi. Afrikaning mintaqaviy tashkilotlari, shu jumladan AI va turli mintaqaviy iqtisodiy organlar, ziddiyatlarni turli yo'llar bilan, jumladan, erta ogohlantirish tizimini o'rnatish orqali hal qilishdi. AI va ECOWAS tinchlikparvarlik missiyalarida alohida faollik ko'rsatdilar.

AI tinchlikparvar kuchlari Burundi, Sudan/Darfur va Somaliga yuborilgan. Darfurda AI missiyasi birinchi navbatda tinch aholini

himoya qilish bilan shug'ullangan, Somalida esa rasmiy ravishda yordamni doimiy ravishda yetkazib berishni ta'minlashga vakolat berilgan. Aytish joizki, AI tinchlikparvar missiyalari, shuningdek, ularga berilgan insonparvarlik va himoya vazifalarini bajarish uchun juda kichik va yomon tayyorgarlikda ayblangan.

Mintaqaviy tashkilotlar, ayniqsa Shimoliy va Janubiy Amerikada gumanitar sohada o'nlab yillar davomida olib borilgan ishlarga tayan-gan holda faollashib bormoqda. Ayniqsa, ASEANning Myanmada gumanitar yordamni ta'minlashdagi rolikdan so'ng, mintaqaviy tashkilotlar asosiy gumanitar tashkilotga aylanishi mumkinligi haqida optimizm kuchaydi. Bunday optimizmga qaramay, mintaqaviy tashki-lotlar har qanday modelga mos kelmaydi yoki hech qanday imtiyozga ega emas. Ba'zilar, masalan, SAARS, asosan yuqori martabali amal-dorlar o'rtasida munozara forumi bo'lib xizmat qilgan. Boshqalar, shu jumladan SARICOM va Tinch Okeani mintaqasida bo'lganlar, birinchi navbatda, texnik muammolar atrofida hamkorlik qilish uchun xizmat qilgan. Shu bilan birga, ASEAN va Arab Ligasi o'z a'zolari o'rtasida kelajakdagi rollari, aralashmaslik tamoyillariga sodiqligi va nozik masalalar bilan shug'ullanishga tayyorligi borasida turli manfaatlar va kun tartiblari bilan kurashayotgan ko'rinadi. Bunday xilma-xillilik, albatta, muammo emas va bu bosqichda mintaqaviy tashkilotlarga bir-birini kuzatish va o'rganishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda insonparvarlik subyektlari mintaqaviy tashkilotlar bilan qanday aloqada bo'lishini ko'rsatish mumkin emas. Ularga individual yondashish kerak, va topshiriqlar mintaqaviy tashkilotlar-ning kuchli taraflari va yutuqlarini aks ettirishi kerak, ayniqsa AI,

ECOWAS va ASEAN kabi tashkilotlarda. Bundan tashqari, mintaqaviy tashabbuslarining ko'payishidan ko'rinib turibdiki, hamkorlikni siyosiy yoki qonuniy emas, balki texnik jihatdan amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. HFA dan shuni bilib olish mumkinki, belgilangan muddatlar va muntazam monitoring jarayonlarini o'z ichiga olgan mintaqaviy organlarning rolini belgilaydigan xalqaro tizimlar, ehtimol, taraqqiyot va kuzatuvlarga turtki bo'ladi.

Ko'rsatib o'tilgan misollar shuni ko'rsatadiki, "taraqqiyot" keng miqyosda gumanitar xatti-harakatlarga nisbatan institutsional yoki siyosat darajasidagi atamalarda emas, balki sezilarli amaliy ishlar darajada aniqlanishi kerak. Hozirgi vaqtda mintaqaviy tashkilotlar, zaif institutlar va mojarolar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar ta'sirida yashovchilarning hayotiga hech qanday moddiy hissa qo'shmasdan, Yangi institutlar tuzish, qo'mitalar va siyosat tuzilmalarini yaratish uchun maqtovg'a sazovor bo'lishdi. Siyosatni shakllantirish va institutni qurish, agar mintaqaviy tashkilotlar muhim insonparvarlik ijrochisiga aylansa, oxir-oqibat amaliy harakatlarni keltirib chiqarishi kerak. Muhim yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan, shu jumladan ikki va ko'p tomonlama institutlar tomonidan moliyalashtiriladi va milliy hokimiyat organlari tomonidan nazorat qilinadi, lekin mintaqaviy tashkilotlar birinchilardan resurslarni safarbar qilishda va ikkinchisining muvofiqligini rag'batlantirishda aniq rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida, Xalqaro tashkilotlar xalqaro xulq-atvorni shakllantirish qoidalari, me'yorlari, tamoyillari va jarayonlarini belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mintaqaviy tashkilotlarning

diqqat markazida faqat mintaqaviy hamkorlik: o‘zaro xavfsizlik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanish muammolari va boshqalar. Global yoki bir nechta mintaqalarga mansub davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda, mintaqaviy bitim ishtirokchilari faqat bitta geografik hududdagi davlatlarga tegishli bo‘lgan masalalarni hal qilish huquqiga ega. Mintaqaviy tashkilotlar o‘z a‘zo davlatlariga milliy miqyosda aniq harakatlarni ishlab chiqishda yordam berish orqali barqaror rivojlanish siyosatini samarali o‘tishida xizmat qiladi.

1.3 Turkiy davlatlar tashkiloti va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari

Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy tilli davlatlarning umumiy maqsad ostida birlashgan a‘zo davlatlarning, shuningdek, turk dunyosi va mintaqa davlatlarining iqtisodiyotdan tortib siyosatga qadar, ta’lim, madaniyat, turizm, sport va ko‘plab sohalarda hamkorlik va samaradorlikni ko‘tarish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi. Turkiy davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish va Yevrosiyo mintaqasida va Islom dunyosida, ayniqsa Markaziy Osiyo va Kavkazda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilib, umumiy rivojlanish salohiyatini inobatga olgan holda, tashkilot asosiy e’tiborni mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshiradi.¹

“O‘zbekiston uchun dunyoning Rossiya, Xitoy, AQSH kabi yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamla-

¹ <https://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/turkij-tilli-davlatlar-amkorlik-kengasiga-azo-mamlakatlar-turkij-olam-birdamligini-anada-mustakamlasga-kirisismokda>

katlar, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi, arab-musulmon hamda turkiy tilli davlatlar bilan o‘zaro manfaatli, samarali va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.”¹ – deya Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’kidlanishi ham bejizga emas.

O‘zbekiston Respublikasining Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zolikka kirishi uning Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan ko‘p tomonlama diplomatiyasining faollashuvi natijasi bo‘ldi. Respublikaning Tashkilot faoliyatidagi ishtiroki savdo-sotiq va investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlarni yaxshilash, transport aloqalarini mustahkamlash, bojxona va tranzit protseduralarini, tovarlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun moliyaviy va bank operatsiyalarini yanada soddalashtirish uchun yaxshi istiqbollarni ochib beradi.

Turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. Turk hoqonligi, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar kabi qadimgi turkiy davlatlar o‘z davri-ning eng qudratli saltanatlaridan bo‘lgan. Ularning ta’sirida turkiy til va turmush tarzi keng yoyila boshlagan, ilm-fan, madaniyat va san’at yuksak rivojlangan, ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ularning ulkan kashfiyotlari, nodir asarlari nafaqat turkiy tilli xalqlar, balki butun jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi.

Turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi Yaqinlik nafaqat mushtarak madaniyat, til, din va o‘xshash qadriyatlar, balki qadimdan savdo aloqalari

¹ <https://uza.uz/uz/posts/zamonaviy-dunyeda-zbekiston-tash-i-siyosatining-kun-tartibi-27-08-2020>

yo'lga qo'yilib, o'zaro bordi-keldi, hamkorlik qilib kelingani bilan ham bog'liq. Bu rishtalar sobiq ittifoq davrida qisman cheklangan bo'lsa, ammo mustaqillik yillariga kelib qon-qardoshlik tuyg'usi yana eski o'zanini topdi. Sobiq ittifoq tarkibidagi turkiy mamlakatlarda milliy o'zlikni anglashga e'tibor kuchaydi, tarixiy an'analar qayta tiklandi, turkiy tilli davlatlar bilan o'zaro aloqalar faollashdi.

1991-yilda dunyo xaritasi tubdan o'zgardi. Bir vaqtlar Sovet Ittifoqi nomi bilan tanilgan bu mintaqa qayta erkinlikka erishgan davlatlarning hududiga aylandi. Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekiston kabi beshta turkiy davlat o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi va dunyoga qo'shila boshladi.¹ Ushbu muhitda Turkiya postsovet turkiy davlatlarining asosiy sheriklaridan biriga aylandi. Anqara mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olishdan tashqari, G'arbiy va turkiy dunyolar o'rtasida ko'priq vazifasini ham o'z zimmasiga oldi. Turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi hamkorlik Turkiy davlatlar tashkilotining asoslarini yaratgan 2009-yil 3-oktabrda imzolangan Naxchivan bitimi bilan sekin, ammo barqaror yo'nalishda rivojlandi.

Turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar rahbarlari 1990-yillarning boshidayoq tili, dili, madaniyati va diniy e'tiqodi umumiy bo'lgan qardosh xalqlarning teng huquqli hamjamiyatiga asos solganlar. Turkiy davlatlar tashkilotining asosiy maqsadi turkiy tilli davlatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

¹https://mgimo.ru/files/19286/Flang_2003.pdf?utm_source=google.com&utm_medium=organic&utm_campaign=google.com&utm_referrer=google.com

Uni tashkil etish bo'yicha tashabbus Qozog'istonning sobiq Prezidenti tomonidan 2006-yilda olg'a surilgan. Tashkilotning ta'sischi davlatlari Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston hisoblanadi. 2009-yilda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston bu do'stlik va hamkorlikni Yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish haqida kelishib oldi. Tashkilot faoliyatining asosiy prinsiplari 2016-yilda qabul qilingan Istanbul deklaratsiyasida belgilab qo'yildi.

Turkiy davlatlar tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavining maqsadlari va tamoyillariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsiplari va me'yorlariga, shu jumladan suveren tenglik, hududiy yaxlitlik va davlatlarning xalqaro e'tirof etilgan chegaralarining daxlsizligi, shuningdek xalqaro tinchlik, xavfsizlik va yaxshi qo'shnichilikni rivojlantirishga sodiq bo'lgan hukumatlararo tashkilotdir. Shu bilan birga, a'zo davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va hamkorlik rivojlantirishga doimo intiladi.

Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, keng hamkorlikni rivojlantirishga, a'zo davlatlarning umumiy rivojlanishi uchun imkoniyatlarni ochishga qaratilgan tashkilotdir. Tashkilot ma'lum bir mamlakat guruhini birlashtirgan bo'lsa-da, eksklyuziv yondashuvni qo'llamaydi. Aksincha, turkiy tilli davlatlar o'rtasida chuqurroq aloqalar va birdamlikni rivojlantirish orqali Yevroosiyo qit'asida, ayniqsa Markaziy Osiyo va Kavkazda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun Yangi mintaqaviy vosita bo'lib xizmat qilishiga intiladi.

Umumiy tarix, mushtarak til, o'ziga xoslik va Yaqin madaniyat singari to'rtta ustunda qurilgan Turkiy davlatlar tashkiloti bu umumiy xususiyatlar bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, bu ikki tomonlama hamkorlikning mavjud yo'nalishlarini, masalan, a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiyot, fan, ta'lim, transport, bojxona, turizm va boshqa turli sohalarni mintaqa manfaatlari yo'lida ko'p qirrali hamkorlikka kengaytirishga qaratilgan.

Turk dunyosi integratsiyasining rivojlanishi barcha turkiy davlatlarning davlatchiligini mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, turkiy tilda so'zlashadigan mamlakatlar global siyosiy jarayonga sezilarli ta'sir o'tkaza olishadi. Bundan tashqari, endi turkiy tilda so'zlashadigan mamlakatlar birgalikda jiddiy kuchni anglatadi. Ular iqtisodiyotining yalpi ichki mahsuloti 1 trillion 150 milliard dollardan oshadi. Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolarining aholisining soni 160 million kishini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo juda katta tarixiy va madaniy chegaralarga ega. Xuddi shu yerda, turkiy tilda so'zlashadigan xalqlarning katta qismi yashaydi. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, mintaqa beshta postsovet mamlakatlaridan tashqari, Mo'g'uliston, G'arbiy Xitoy, Panjob, Shimoliy Hindiston va Shimoliy Pokiston, Eronning shimoliy-sharqiy qismi, Afg'oniston, Rossiyaning Osiyo tayga zonasi janubigacha bo'lgan hududlar kiradi.¹ Ushbu yerlar turkiy tilli davlatlar integratsiyasi tufayli o'tmishda bo'lgani kabi tarixiy davomiylik tamoyiliga rioya qilgan holda, jahon tarixida alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan katta ittifoqdosh o'qini shakllantirish mumkin.

¹ <https://minio.la.utexas.edu/webeditor-files/slavic/pdf/intro20to20central20asia206th20grade-20final.pdf>

Albatta, turkiy tilda soʻzlashadigan mamlakatlarning birlashishi, Pan-Turkizm doktrinasida koʻrsatilganidek, Buyuk Turon singari yagona markazlashgan yoki federal davlat yaratilmasdan amalga oshishi kerak. Turkiylarning birligini roʻyobga chiqarishda qandaydir imperialistik loyihalar, manfaatdor oʻyinchilarning tegishli ambitsiyalarini amalga oshirishiga yoʻl qoʻymaslik kerak.

Zamonaviy davrda siyosiy panturkizm gʻoyalari ikkinchi darajaga koʻtarilmoqda. Bir qator ekspertlarning fikriga koʻra, dastlab, 90-yillarning boshlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan mustaqillikka erishgandan soʻng Turkiya oʻz gʻoyalarini olgʻa surishni boshlagan. Keyin Anqara Turkiy davlatlar tashkiloti integratsiyasini rivojlantirish uchun, shu jumladan Markaziy Osiyoning turkiy tilli mamlakatlari hamkorlik orqali ish olib borish kerakligini angladi. Natijada Anqara 90-yillarning oʻrtalaridan boshlab Markaziy Osiyoga nisbatan ikki tomonlama oʻzaro taʼsirlar, koʻp tomonlama institutlar, iqtisodiy aloqalar va yumshoq kuchlarning murakkab kombinatsiyasidan foydalangan.

Aholisining aksariyat qismi musulmonlardan iborat boʻlgan holda, dunyoviy davlat qurish yoʻlidan borgan respublikalar uchun, oʻzida sekulyar demokratiyani muvaffaqiyatli joriy qilgan, shuningdek, koʻppartiyaviylik borasidagi yutuqlari bilan turk modeli juda ham jozibador koʻringan edi. Shu sababdan ham oʻtgan asrning 90-yillarida mintaqa mamlakatlari rahbarlari rivojlanishning turk modelini qabul qilishga tayyor ekanliklarini bildirdi. Afsuski, Anqaraning umumiy turk siyosiy va iqtisodiy hamjamiyatini yaratish borasida oʻz salohiyatiga ortiqcha baho bergani tez orada ayon boʻlib qoldi, uning

bu sohada yetarli resurslarga ega emasligi oydinlashdi, endigina mustaqillikka erishgan turkiy tilli davlatlarga va'da qilingan iqtisodiy yordamni bera olmadi. Natijada, turk modeli mintaqa yetakchilari uchun o'z jozibadorligini yo'qotdi.

Turkiyaning asosiy maqsadi aloqalarni rivojlantirish va Markaziy Osiyo bilan Yaqinlashishni ta'minlash edi. Tijorat va biznes muhim albatta, biroq eng muhimi, madaniy rishtalarni saqlash bo'lgan. Mustaqillikning ilk yillarida Turkiya turkiy xalqlar orasida integratsiyani targ'ib qilib, o'ziga xos bir blok tuzish kerak degan takliflarni quvvatladi. Lekin Markaziy Osiyo respublikalari mustaqil davlat sifatida oyoqqa turar ekan, o'zi tanlagan yo'ldan borishni xohladi. Integratsiya emas, suverenitet muhim edi.

1996-yildan keyin Turkiya turkiy tilli respublikalar bilan munosabatni qayta tashkil qila boshladi. Endi bu siyosat real siyosiy vositalar va uzoq muddatli hisob-kitoblar bilan ta'minlangan edi. Munosabatlarning ikkinchi bosqichida panturkizm singari pafosli g'oyalardan voz kechilgan bo'lsa-da, mintaqa davlatlari bilan ko'p qirrali munosabatlarni o'ziga xos etno-lingvistik asosda rivojlantirish tamoyili saqlab qolindi. Buning yorqin isboti – turkiy tilli davlatlar Kengashining ta'sis etilganidir.

Shartli ravishda Turkiy davlatlar tashkilotining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin.

Taraqqiyotning birinchi bosqichi SSSR parchalanib ketganidan so'ng va 1992-yilda Anqarada bo'lib o'tgan turkiy tilli davlatlar rahbarlarining sammitidan so'ng darhol boshlandi, unda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston

prezidentlari ishtirok etdi. Keyinchalik prezidentlarning bunday uchrashuvlari 1994-, 2001- va 2010-yillarda Istanbulda, 1995-yilda Bishkekda, 1996-yilda Toshkentda, 1998-yilda Ostonada, 2000-yilda Bokuda, 2006-yilda Antaliyada bo‘lib o‘tgan.¹

Ikkinchi bosqichni hamkorlik mexanizmini huquqiy rasmiylashtirish deb atash mumkin. 2009-yilda Naxchivanda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi tashkil etildi. Keyingi yillarda TurkPA, Turk akademiyasi va Turkiy tillar madaniyati va merosi jamg‘armasi kabi sohaviy hamkorlikni institutsionalizatsiya qilish va sho‘ba platformalar yaratish mumkin bo‘ldi. Tuzilma shakllanishining ushbu bosqichi O‘zbekistonning to‘laqonli a‘zo sifatida kirishi munosabati bilan uning kengayishi bilan yakunlandi.

2021-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan Turkiy oila uchun tarixiy Istanbul sammiti bilan uchinchi bosqich boshlandi, bu tashkilot uchun muhim burilish nuqtasi sifatida esda qoladi, chunki a‘zo davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar yanada Yaqinroq va kengroq hamkorlikning Yangi davriga kirdi. Sammit chog‘ida Turkiy davlatlar prezidentlari Turkiy kengash nomini «Turkiy davlatlar tashkiloti» deb o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu o‘z navbatida tashkilot ahamiyatini oshirish va xalqaro hamjamiyatdagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Oldingi nomdan farqli o‘laroq, hozirgi nom turkiy davlatlar xalqlarining yagona o‘ziga xoslikka mansubligini ta’kidlaydi, bu nafaqat umumiy til, tarix, ko‘p asrlik an‘analari, madaniyat va ma’naviy qadriyatlar bilan tavsiflanadi, bu o‘z-o‘zidan juda katta ahamiyatga

¹ Международная научная студенческая конференция «Турция. Тюркские государства. Тюркоязычные народы России». Сборник статей / Под ред. В.А. Аваткова, Т.В. Кашириной – М., 2018. - С. 128-132

ega. Ularni umumiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar manfaatlar ham birlashtiradi, bu umumiy geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy makonda joylashgan mamlakatlar uchun tabiiydir.

Ta'kidlash joizki, boshqa hududiy tashkilotlardan farqli o'laroq, kuzatuvchilarimiz tashkilot faoliyatida ishtirok etish uchun kengroq vakolatlarga ega. Qoidaga ko'ra, ular ekspert uchrashuvlaridan tortib, davlat rahbarlarining sammitlarigacha bo'lgan deyarli barcha o'zaro hamkorlik formatlarida namoyon bo'ladi. Faqatgina muhim farq shundaki, kuzatuvchi Tashkilot qarorlarini qabul qilishda, ya'ni ovoz berishda ishtirok etmaydi.

Ma'lumki, global xalqaro tashkilotlardagi a'zolikdan farqli ravishda faqat ma'lum bir mintaqadagi davlatlar uchun ochiq bo'lgan mintaqaviy institutlar mavjud. Bu kabi mintaqaviy tashkilotlarga Yevropa Ittifoqi, Afrika Ittifoqi va Amerika Davlatlari Tashkilotini misol qilib keltirish mumkin. Bu tashkilotlar o'z a'zolari o'rtasidagi kelishuvlar asosida a'zolik me'zonlarini xalqaro huquqiy me'yorlardan kelib chiqib belgilaydi. Tarixiy assotsiatsiya (Millatlar Hamdo'stligi), iqtisodiy rivojlanish (Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) va din (Islom konferensiyasi tashkiloti) kabi ma'lum me'zonlar asosida tuzilgan a'zo davlatlardan tashkil topgan tashkilotlarnit ham misol keltirish mumkin.

Shundan kelib chiqib, tashkilotning tabiati a'zolikning cheksiz kengayishiga yo'l qo'ymaydi. Turkiy davlatlar tashkiloti ham a'zolikning asosiy mezon sifatida nomzod davlatning rasmiy tillari ichida turkiy oila tillaridan biri mavjud bo'lgan davlatlarga tashkilotga to'laqonli a'zo bo'lishi belgilangan.

Shu bilan birga, faqat turkiy tillardan biri rasmiy tillardan biri bo'lgan davlatlar ham kuzatuvchi bo'lishi mumkin. Shu bois Istanbul sammitida Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorlari to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi va shu orqali tuzilma uchinchi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan konstruktiv hamkorlik aloqalarini o'rnatishga ochiqqligini amalda ko'rsatdi. Endilikda deyarli har qanday davlat muayyan sohada o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga real hissa qo'shishga tayyor bo'lsa, hamkor bo'lishi mumkin.

Istanbul shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining sakkizinchi sammiti bo'lib o'tdi, unda a'zo davlatlar Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qirg'iziston, Vengriya va Qozog'iston rahbarlari, shuningdek, kuzatuvchi davlatlar rahbarlari ishtirok etdi. "Raqamli asrda yashil texnologiyalar va aqlli shaharlar" mavzusidagi sammitda tashkilotga a'zolik va kelajagiga oid keng ko'lamli masalalarni qamrab oldi.¹ Bu borada ham bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Avvalo, kengashning rasmiy nomi "Turkiy davlatlar tashkiloti" deb o'zgartirildi va Turkmaniston Turkiy davlatlar tashkilotiga kuzatuvchi sifatida rasman qo'shildi.

Hozirda beshta davlat tashkilotning to'liq a'zosi, uchta davlat esa kuzatuvchi maqomiga ega.

O'n beshga Yaqin davlat tashkilot bilan hamkorlikning turli formatlarini yo'lga qo'yish istagini bildirdi. Bu tashkilotning yuksak obro'-e'tiboridan, xalqaro nufuzi izchil yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

¹ Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши. (2023). Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг саккизинчи саммити: "Рақамли асрда яшил технологиялар ва ақлли шаҳарлар". Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши. <https://www.turkic-council.org/8th-summit-2023>

Sammitda qabul qilingan Yangi qoidalarga ko‘ra, endilikda rasmiy tillari turkiy oiladan bo‘lgan davlatlarga tashkilotga a‘zo bo‘lishi belgilangan. Xuddi shu narsa allaqachon maqomga ega bo‘lgan Vengriyani hisobga olmaganda, kuzatuvchi davlatlarga ham tegishli. Shuning uchun Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo bo‘lish istagini avvalgi bildirgan Rossiya, Ukraina va Afg‘oniston bu ishni uddalay olmaydi. Shu bilan birga, tashkilot “Hamkor maqomi”ni ham o‘rnatdi, bu hamkorlik doirasida boshqa davlatlarni jalb qilish imkonini beradi, lekin tashkilotda qabul qilinadigan qarorlarga aralashish imkoniyatini bermaydi.

Tashkilot a‘zolarini iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga chaqirilib, tashkilotning ushbu maqsadga erishishdagi rolini yuqori baholandi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotning boshqa a‘zolari bilan tovar ayirboshlash hajmi ikki baravar ko‘payganini qayd etib, a‘zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy ayirboshlashni yanada yaxshilash, bozorlarimizdagi uchinchi davlat tovarlarini bozorlarimizda o‘ziga xos bo‘lgan tovarlar bilan almashtirish zarurligini ta’kidladi. Turkiy davlatlar tashkiloti o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslarni taklif qilishdi: boshqa masalalar qatori mavjud savdo to‘siqlarini minimallashtirish, elektron tijoratni joriy etish va hamkorlik loyihalarini avvalgi surish.

Vengriyaning Turkiya Respublikasi, Rossiya, Xitoy, Yaqin Sharq va Osiyoga nisbatan Yangi tashqi siyosiy yo‘nalishi bo‘yicha ushbu mamlakat va Turkiy davlatlar tashkiloti o‘rtasida Yaqin hamkorlik o‘rnatildi. Bu o‘z navbatida "Sharqiy ochilish" deb nomlandi.

Turkiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashdan tashqari, venger xalqining turkiy tarixi, madaniyati va tili bilan rishtalari Vengriyaning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zoliqi jarayonida ham samarali bo'ldi.

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban tashkilotning VI sammitidagi nutqida vengerlar o'zlarini Xun imperiyasi hukmdori Atilla avlodlari deb hisoblashlarini va ularning kelib chiqishi xun-turklardan ekanliklarini ta'kidladi. Venger tili turk tili bilan bog'liqligini quyidagicha talqinlagan: "Biz venger tilida gaplashamiz. Bu turk tili bilan aloqasi bo'lgan noyob til. Biz xristian dinini oldik, lekin qipchoq-turk tamoyillariga e'tibor qaratdik"¹.

Vengriya kuzatuvchi maqomini olganidan so'ng, Budapeshtda Turkiy davlatlar tashkilotining Yevropa vakolatxonasini ochishga qaror qilindi. Vakolatxonani Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlarining VI-sammiti oldidan ochish va Vengriya, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va YEXHT kabi boshqa Yevropa institutlari bilan munosabatlarni mustahkamlash orqali Yevropada tashkilotning obro'sini oshirishga yordam berish ekanini ta'kidlagan.

O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi, tashkilot mavqe'ini Yangi darajaga olib chiqdi. Ushbu tashkilotdagi O'zbekiston ishtirokining milliy manfaatlarga qanchalik mos ekanini O'zbekiston Prezidentining Turkiy davlatlar tashkilotining 2018-yil Qirg'izistonda bo'lib o'tgan sammitida so'zlagan nutqida quyidagicha ta'kidlagan: "Turkiy davlatlar tashkilotidoirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz. Hozirgi bosqichda uning

¹ <https://www.aa.com.tr/ru/%D0%0/1245541>

faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uygʻotadigan yoʻnalishlar boʻyicha ishtirok etishga tayyormiz”¹.

Oʻzbekistonning Tashkilotga kirishi turkiy dunyo birligini mustahkamlashda muhim voqea boʻldi. Oʻzbekiston turkiy dunyoning ajralmas qismi sifatida tashkilotni shakllantirishda hamisha ishtirok etgan. U hamisha maʼnaviy merosi turkiy-islom sivilizatsiyasining asosiy negizlaridan biri, iqtisodiy va madaniy beshigi boʻlgan mamlakat boʻlgan va shunday boʻlib qoladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil oktabr, 2020-yil aprelda Bokuda, 2021-yil martda Turkistonda va 2021-yil noyabrda Istanbulda boʻlib oʻtgan sammitlarda avvalgi surilgan aniq tashabbuslar tufayli tashkilotga aʼzo davlatlar oʻrtasida oʻzaro manfaatli sheriklik uchun avvalgi foydalanilmagan imkoniyatlar ochildi.

2021-yil turkiy dunyo uchun muhim voqealar bilan samarali boʻldi. Bunda Oʻzbekistonning rolini alohida taʼkidlab oʻtish lozim. 2021-yilning iyun oyida Qoʻqon shahrida Turizm vazirlarining 6-yigʻilishi boʻlib oʻtgan boʻlib, unda avvalroq Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan “Tabarruk ziyorat” loyihasini amalga oshirish masalalari muhokama qilingan edi. Tomonlar ushbu loyihani har tomonlama qoʻllab-quvvatlab, uni amalga oshirish boʻyicha ishchi guruh tuzish va mamlakatlarimiz ziyoratgohlarining turistik xaritasini yaratishga kelishib olgan edilar.

Bundan tashqari, Qoʻqon shahri ilk bor “Turk dunyosining turistik poytaxti” deb eʼlon qilindi². 2022-yil davomida aʼzo davlatlarda ushbu

¹ <https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/2903/>

² <https://yuz.uz/news/buxoroda-birlashgan-qalblar-dunyoga-dostlik-hamjihatlik-qardoshlik-namunasini-korsatdi>

shaharning turizm salohiyati va brendini targ'ib qilish maqsadida keng ko'lamli tadbirlar o'tkazildi.

2021-yilning sentabr oyida O'zbekiston rahbari tashabbusi bilan ilk bor O'zbekistonda yosh tadbirkorlar forumi o'tkazildi va unda turkiy mamlakatlardan 250 dan ortiq yosh tadbirkorlar ishtirok etdi. Forum doirasida tashkilot Yoshlar va sport ishlari vazirlarining 5-yig'ilishi ham o'tkazildi.

Xivani "Turk dunyosi madaniy poytaxti" deb e'lon qilish sharafiga, Xivada, TURKSOYga a'zo davlatlar Madaniyat vazirlari doimiy kengashining 38-yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich tashabbusi bilan Turkiy davlatlar tashkilotining Alisher Navoiy nomidagi "Turk dunyosi birligiga qo'shgan hissasi uchun" xalqaro mukofotining ta'sis etilishi muhim voqea bo'ldi.

Tashkilotga a'zolik O'zbekistonning tub manfaatlariga to'la javob beradi. Bugungi kunda mamlakatlarimiz o'rtasida nafaqat madaniy-ma'naviy aloqalar, balki savdo-iqtisodiy munosabatlar ham Yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbekiston nafaqat tashkilot doirasida, balki, boshqa davlatlar bilan ham bo'lgan munosabatlarini yo'lga qo'yishda o'zaro manfaatli hamkorlik tarafdori ekanini ko'rsatmoqda. Bir tomonlama manfaatlarga xizmat qiluvchi tashkilotlar kelajagi yo'qligi alohida ta'kidlanmoqda.

Madaniy-tarixiy aloqalardan tashqari, turkiy tilli davlatlarning iqtisodiy-siyosiy integratsiya uchun imkoniyatlari cheklanganini tan olish lozim. Xususan, savdo aloqalarini rivojlantirish Kengash nizomida alohida qayd etilgan. Unda "Savdo va sarmoyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar, kapital, xizmatlar va texno-

logiyalarning harakatlanishini yengillashtirish uchun bojxona va tranzit jarayonlarini, moliyaviy va bank operatsiyalarini yanada soddalashtirish” masalasiga alohida urg‘u berilgan.¹

Turkiy davlatlarning aksariyati o‘zi uchun ustuvor sanalgan boshqa davlatlar va integratsion birlashmalar bilan munosabatlarni rivojlantirishga ko‘proq ahamiyat bermoqda. Bir so‘z bilan aytganda, turkiy davlatlar siyosiy elitasi bu Tashkilotda ishtirok etishni boshqa tashkilotlar doirasidagi samarali faoliyatiga muqobil variant sifatida ko‘rayapti. Tashkilotning rivojlanishi turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashi bilan bir qatorda, ushbu davlatlar o‘rtasidagi savdo munosabatlarini erkinlashtirishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda dunyoda geosiyosiy vaziyat keskin transformatsiyalanmoqda. Ikki xil kuchlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat, hududlar orasidagi iqtisodiy barqarorlik, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy muammolar aniq belgilar bilan kuchayapti. Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy va iqtisodiy platformalar mavjud bo‘lib, Turkiy davlatlar tashkiloti shu kabi shakllangan platformalarning bir qismi sifatida mintaqa davlatlari o‘rtasida xavfsizlik, barqarorlik va integratsiyani ta‘minlashda alohida o‘rin tutadi. TDT, Markaziy Osiyodagi boshqa mintaqaviy tashabbuslar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlab, strategik tuzilmaga aylanishda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim manba bo‘ladi.

Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi hududlarda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan muhim

¹ Туркий давлатлар ташкилоти. (2022). Кенгаш низоми: Савдо, сармоя ва транзит жараёнларини соддалаштиришга оид қарорлар. Туркий давлатлар ташкилоти расмий ҳужжати. <https://www.turkic.org/charter>

platforma sifatida o‘zaro hamkorlikning mustahkamligiga xizmat qiladi. TDTning eng muhim rollaridan biri — bu mintaqadagi xalqaro munosabatlar va siyosiy barqarorlikka hissa qo‘shishdir. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda turli geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlar, shu jumladan, global raqobat, milliy manfaatlar, shikastlangan yoki yaxshi shakllangan diplomatik munosabatlar va ijtimoiy-ekonomik munosabatlar orqali inqirozlarga olib kelishi mumkin.¹ TDTning mustahkam hududiy integratsiyani ta’minlashdagi strategik vazifasi mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi siyosiy barqarorlikni saqlash, ikkala iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlikka oid keng ko‘lamli dasturlar ishlab chiqish va ma’naviy integratsiyani jadallashtirishdan iborat bo‘ladi.

Turkiy davlatlar tashkiloti, Markaziy Osiyodagi boshqa mintaqaviy platforma va tashabbuslar bilan integratsiya qilish, ularning muvaffaqiyatli hamkorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.² Mos ravishda, TDT mintaqadagi barqarorlikni ta’minlashda, xavfsizlikni mustahkamlashda va iqtisodiy rivojlanishda strategik hamkorlik maydoni bo‘lib, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalarga qarshi turish imkonini beradi. Shuningdek, TDT o‘ziga xos geosiyosiy manevr qilish, siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash va mintaqadagi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlashda samarali vosita bo‘la oladi

Xulosa qilib aytganda, mazkur tashkilot doirasida azaliy qardoshlikni mustahkamlash barobarida global va mintaqaviy muammolar

¹ Велиев, А. (2021). Туркий давлатлар ташкилоти ва Марказий Осиёдаги сиёсий барқарорлик. Марказий Осиё ва халқаро алоқалар, 4(1), 19-34.

² Шарипов, С. (2021). Туркий давлатлар ташкилоти ва минтақавий интеграция. Марказий Осиёнинг глобал сиёсати, 8(3), 65-77.

bo'yicha siyosiy maslahatlashuvlarni kuchaytirish, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlikni, ilm-fan, san'at va madaniyat sohasida hamda turkiy tilli dunyoning moddiy, ma'naviy madaniyatini asrash va yanada rivojlantirish borasida hamkorlikni yuqori saviyaga ko'tarish asosiy maqsad bo'lib qoladi. Xususan, turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim jihati hisoblanadi. Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlikning faollashuvi yurtimiz uchun qo'shni davlatlar bilan ham, mintaqadan tashqaridagi Yangi hamkorlar bilan ham ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirish uchun Yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tashqi siyosatni ichki siyosat, xalqaro siyosat, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va millatlararo munosabatlardan ajratib amalga oshirishning iloji yo'q. Har birining oldiga alohida maqsad va vazifalar qo'yilgan bo'lishiga qaramay, ular bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Shu bilan birga, tashqi siyosat bilan bog'liq ushbu tushunchalar amaliyotda bevosita qatnashadi yoki nazariy jihatdan tashqi siyosatni yanada chuqurroq o'rganish, uning mazmun va mohiyatini to'liq tushunishga yordam beradi.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro maydondagi xulq-atvor qoidalari, me'yorlari, tamoyillari va jarayonlarini shakllantiruvchi muhim omildir. Mintaqaviy tashkilotlar esa, asosan, mintaqaviy hamkorlik, xavfsizlik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Ular o'z a'zolariga milliy darajada tegishli choratadbirlarni ishlab chiqishda ko'maklashib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi. Bunda faqat bir geografik hududdagi davlatlar o'rtasidagi masalalar hal etiladi, lekin bu

jarayonda mintaqadan tashqaridagi davlatlarning manfaatlari ham inobatga olinishi mumkin.

Turkiy davlatlar tashkiloti, geosiyosiy sharoitda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mintaqaviy platforma va tashabbuslar bilan hamkorlikda, xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. TDT, ichki barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, madaniy aloqalarni o'rnatish orqali mintqa davlatlarining turmush darajasini oshirish va xalqaro maydondagi taassurotni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, bunday strategik integratsiya Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror va hamjihat iqtisodiy-siyosiy muhitni yaratishga olib keladi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida azaliy qardoshlikni mustahkamlash, global va mintaqaviy muammolar bo'yicha siyosiy maslahatlashuvlarni kengaytirish, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni kuchaytirish hamda turkiy madaniyat va ma'naviyatni asrash va rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirishdir. Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlikning faollashuvi nafaqat qo'shni davlatlar bilan, balki mintaqadan tashqaridagi Yangi sheriklar bilan ham ko'p tomonlama aloqalarni kengaytirish uchun Yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

II-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATIDA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING O‘RNI

2.1 O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo turkiy tilli davlatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorligi

Bugun dunyo turli qarashlar, g‘oyalar, nuqtai-nazarlarning tamomila yangicha rivojlanish pallasiga kirib, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g‘oya va mafkuralariga ham birdek katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Aslida, turli jamiyat a’zolari munosabatlarining o‘zaro integratsiyasi sifatida tanilgan globallashuv jarayoni vaqt o‘tishi bilan, uning faoliyat yo‘nalishi “trayektoriya”si ham o‘zgarib bormoqda. Atoqli siyosatchi Karl Yaspersning “har bir davr o‘zicha bir tahdiddir”¹ degan so‘zlari bugun yana bir bor isbotini topayotgandek. Inson oliy mavjudot ammo bu – uni xatolardan holi ekanini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o‘zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish insonlarning o‘zlari tomonidan turli institutlar, ya’ni, tom ma’nodagi “tartibga solish qurilmalari” tashkil etilgan.

Nega deganda, globallashuv jarayoni ta’siri mamlakatlar bir qancha muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Ya’ni, ma’lum maqsadlar yo‘lida, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlik yo‘lini tutadilar. Bu esa, davlatlar, mintaqalar o‘rtasida integratsiya jarayonlarini kuchayishi, xalqaro munosabatlarni shakllanishi, ekologiyani buzilishi natijasida

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/karl-yaspers-kak-istoricheskaya-lichnost/viewer>

yuzaga kelgan tabiiy ofatlar mahsuli talofatlar vaqtida o‘zaro ijtimoiy yordamlarni ko‘rsatilishi yoki jahonshumul muammo sifatida qaralishi, ilm-fan yutuqlarini tezlik bilan dunyoning har bir yeriga yetib borishi va rivojlanishi, xavfsizliklarga birgalikda kurash olib borilishiga sabab bo‘lmoqda.

XX-asrning 90-yillaridan keyin dunyoda Yangicha munosabatlar tizimining vujudga kelishi, sharq mamlakatlari o‘rtasida mintaqaviy hamkorlikni kuchayishi davlatlararo tuzilmalarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Sharq davlatlari o‘zaro birlashuvi natijasida Yangi integratsion tashkilotlarning rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Mintaqaviy jarayonlarining o‘zgarishi, mintaqaviy tashkilotlarning integratsiya jarayonida qanchalik muhim omil ekanligi, kabi masalalarning davlatlar tashqi va ichki siyosatiga tasirini o‘rganish hamda tahlil etib berish o‘ta dolzarb masaladir.

Markaziy Osiyoda o‘zaro hamkorlik borasida Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitobida quyidagilarni ta’kidlagan: “Yangi O‘zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqilgan strategiyada Markaziy Osiyodagi qo‘shnilarimiz, butun jahon hamjamiyati, uzoq-Yaqindagi davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birgalikda hal qilish, eng rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa’y-harakatlar mujassam.”¹

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A. Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “XXI asr xalqaro munosabatlarda butun

¹ Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyati, 2021. Б. - 19

dunyo qamrab olinadigan asr ekanini kuzatishimiz mumkin. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda mustaqil davlatlarning ishtirok etishini, kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman – butun sayyoramiz ko‘lamida ham xavfsizlik va barqarorlikning asosiy omili deb hisoblash zarur”.¹

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosidan olinadigan iqtisodiy va moliyaviy mablag‘lar asosan mamlakat iqtisodiyoti va boshqaruv tizimi, jamiyat barqarorligini izdan chiqarish kabi maqsadlarda foydalaniladi. Shuningdek, uyushgan jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarga xalqaro munosabatlarda o‘zaro shartnomalarni imzolash vaqtida ishonchsizlik bilan munosabatda bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida davlatlarning milliy rivojlanishi va xaqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashish jarayonida ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Integratsion jarayonlar kechayotgan bir sharoitda faoliyat yuritish, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va takomillashtirish boshqa mamlakatlarning materiallarini, xom-ashyolarini, resurslarini, xarid bozorlarini, zamonaviy texnologiyalarini ham jalb qilishni taqazo etadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatlarning bir-biri bilan bog‘liq tarzdagi aloqalarga kirishishiga olib keladi. Ular endi investitsiyalar, qo‘shma korxonalar, xalqaro banklar tashkil etish, o‘zaro savdo-sotiq qilish, xo‘jalik rivojlanishini ko‘p tomonlama manfaatlarga moslashtirish

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.298.

borasida hamkorlik qilib, muvoffaqiyatli ravishda taraqqiy etishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek bu holat mamlakat ichkarisida iqtisodiyotning tizimlarini qayta qurishga olib keladi. Uning jadallik bilan rivojlanishiga, xomashyo resurslaridan omilkorlik bilan foydalanishga aholi farovonlik darajasining oshishiga, ishlab chiqarishning rivojlanishiga hamda uni faqat ichki extiyojlarigagina emas, balki tashqi bozorga yo‘naltirilishiga ham ko‘maklashadi.

Integratsiya tushunchasini ilmiy tahlil qilingandagina uning asl mohiyatini anglab yetish mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda mintaqaviy hamkorlik asosan ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.¹

1. Mintaqaviy o‘zaro hamkorlik.
2. Mintaqaviy integratsion hamkorlik.

Bu ikki jarayonni tadqiq qilishda ikkala jarayonning bir biridan farqli qirralarini ajratib olish kerak bo‘ladi.

Mintaqaviy o‘zaro hamkorlik davlat suverenitetiga ta’sir qilmagan holda ikki tomonlama va ko‘ptomonlama aloqalarni yo‘lga qo‘yilishiga olib keladi.

Mintaqaviy integratsiya a’zo davlatlarning suverenitetini ma’lum darajada integratsion tashkilot tomonidan bir muncha ixtiyoriy ravishda cheklashini yuzaga keltiradi. Mintaqaviy o‘zaro hamkorlik uchun muvofiqlashtirish usuli huquqiy tartibga solish usuli bo‘lsa, mintaqaviy integratsiya uchun - bo‘ysunish usuli birlamchi rol o‘ynaydi.

Haqiqiy integratsiya bu insonlar, g‘oyalar, fikrlar, tovarlar va xizmatlarning erkin, hech qanday to‘siqlarsiz harakatlanish

¹<https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-transgranichnogo-regionalnogo-sotrudnichestva-v-forme-paradiplomatii/viewer>

qobiliyatidir. Hukumatlar, jamiyatlar va odamlar ongidagi chegaralarni olib tashlash kerak. Buning uchun biz judayam ko‘p ish qilishimiz va dunyo tajribasidan keng foydalanishimiz kerak.¹ Ushbu mutaxassis fikri integratsiyani samarali kechishi uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan tizimli ishlar majmusi xisoblanadi.

Mintaqaviy integratsion hamkorlikni yuzaga keltirish uchun mintaqada quyidagi shartlar va sharoitlar yuzaga keltirish talab etiladi.

Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishida quyidagi bir qator shart-sharoitlarning mavjudligi ta’sir ko‘rsatadi:

- Integratsion aloqaga kirishayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot jihatidan bir xil darajada bo‘lishi hamda bir turdagi xo‘jalik tizimlariga ega bo‘lishi;
- Ularning hududiy jihatdan Yaqinligi, yagona mintaqada joylashganligi va umumiy chegaraga egaligi;
- Ularning tarixan tarkib topgan va etarli darajada mustahkam iqtisodiy aloqalarga egaligi;
- Iqtisodiy manfaatlar va muammolarning umumiyligi hamda ularni hal etishda birgalikdagi harakatning samaradorligi;
- Integratsion tashkilotning a’zo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish va bozor iqtisodiyotining yetukligi darajasiga ega bo‘lishi;
- Mamlakatlar iqtisodiyoti o‘sib borayotgan paytda integratsion hamkorlik yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi;

¹ <https://kun.uz/03125165>

- integratsiyalashgan mamlakatlar rahbariyatining siyosiy irodasi yuqori ahamiyat kasb etishi, va shu kabi omillar paydo bo'lgandagina mintaqada integratsiya yaxshi rivojlanadi.¹

Sovet Ittifoqi 1991-yilda xalqaro tizimdan toyib bo'lganidan so'ng Markaziy Osiyo mintaqasida Yangi va o'ziga xos antiqa tarixiy jarayon boshlandi. Mustaqillikka erishgan beshta davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston - o'zining Yangi davlatchiligini qayta barpo etish maqsadida zamonaviy davlatchilikka xos bo'lgan barcha unsurlarni yaratish va tegishli siyosiy jarayonni yo'lga qo'yish bilan mashg'ul bo'ldilar.

Prezident Shavkat Miromonovich "... qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beryapmiz. Bizning maqsadimiz ular bilan raqobat qilish emas, balki hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, umumiy muammolarni birgalikda yechishdan iborat.²" deya ta'kidlagan. Ushbu so'zlar mintaqadagi hamkorlikning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligini rivojlantirish bugungi Yangi dunyoviy o'zgarishlar sodir bo'layotgan sharoitda mintaqaviylik va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan ham o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi. To'laqonli mintaqa bo'lish uchun – yagona taqdir ekanini anglash kerak. Buning uchun o'rtadagi salbiy munosabatlarni yuvib tashlash, ularga tizimli yechimni yo'lga qo'yish va yagona subsvilizatsiya ekanini namoyish qilish

¹ Кузнецов А.С. Развитие научных школ парадипломатических исследований в западной политической науке //Дискурс Пи. 2007. № 7. С. 92-94

² Мирзиёев Шавкат Миромонович Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.- Б. 47.

kerak.¹ Hozirgi paytda, Markaziy Osiyo geografik joylashuvi jihatidan kollektiv xavfsizligi to‘la ta‘minlanmagan, ya‘ni mojaroli muammolar mavjud bo‘lgan mintaqa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 10-noyabrdagi Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqida ham bu boradagi masalaga quyidagicha to‘xtalib o‘tgan: “Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa Yaqin va uzoq xorijsda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta‘sirini his etmoqda” bu boradagi mummolarga quyidagicha to‘xtalganlar “Biz bugun taraqqiyotimizning umumiy ustuvor yo‘nalishlarini anglagan holda, chegara, suvdan foydalanish, transport va savdo singari o‘tkir mintaqaviy masalalarni yechish bo‘yicha oqilona murosas yo‘lini izlamoqdamiz.” Bundan tashqari mintaqada sobiq Ittifoq davridan meros bo‘lib qolgan iqtisodiy-siyosiy, harbiy, transport, kommunikatsiya va ekologik muammolar saqlanib turibdi. Bugungi kunda ularning yechimini topishning eng muhim sharti mojaroli vaziyatlarning oldini olish, mintaqada ichki va tashqi muvozanatni saqlash, mintaqaviy va umumjahon integratsiyalashuvni ta‘minlash asosida barqaror rivojlanishga erishish hisoblanadi.²

¹ <https://kun.uz/03125165>

² <https://president.uz/uz/lists/view/1227>

Markaziy Osiyoda umumxavfsizlik tizimining shakllanishida mintaqaviy integratsiya g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi. Bu g'oyaning tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A. Karimov hisoblanib, ularning samarali sa'y-harakatlari natijasida bu makonda kafolatlangan xavfsizlik tizimlari yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Birinchi prezidenti I.A. Karimov: "Markaziy Osiyodagi integratsiyani biz hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika obektlarini birgalashib ishlatish, energiya zahiralarini bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan obektiv zarurat, deb hisoblaymiz. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo'lgan halqlarimizning madaniy, til va ma'naviy birligi haqida-ku, gapirmasa ham bo'ladi"¹ - deb ta'kidlagan edi.

Markaziy Osiyo bo'yicha hamkorligi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishlarga e'tibor beradigan bo'lsak Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z so'zlarida Yevroosiyoning "yuragi"da joylashgan mintaqamiz Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'lovchi ko'priklarni bo'lib, Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan chegaradoshdir.²

Chindan ham mintaqaning geografik jihatdan katta makonni egallagani va tabiiy boyliklarni ko'pligini inobatga olgan holda uning geoiqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari yuqori baholanadi. Mazkur imkoniyatlarni to'liqligicha va ratsional foydalanish mintaqadavlatlarining integratsiya doirasidagi umumiy qarashlarining strategiyasiga

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. –Б. 257.

² <https://president.uz/uz/lists/view/1227>

bog‘liq. Mintaqaviy integratsiya strategiyasini amalga oshirish milliy manfaatlarining uyg‘unlashuvi bilan izohlanadi. Mazkur integratsion manfaatlarni uyg‘unlashtiruvchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- davlatlararo savdo-sotiqni erkinlashtirish orqali,
- umumiy yagona bozorni yaratish;
- mintaqa suv resurslarining ratsional taqsimotini ta’minlash;
- xalq xo‘jaliklarini biror-bir ishlab chiqarish jabhalarida ixtisoslashuvi va mehnat taqsimoti;
- milliy moliyaviy tizimlarning o‘zaro barqarorlashuvi va keskin o‘zgarishlardan xoli bo‘lgan hamda kelishilgan pul siyosati;
- mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning institusionallashuviga bo‘lgan umumiy ehtiyojning mavjudligi.

Ushbu yo‘nalishda, mamlakatlarning mintaqaviylikka intilayotgan bir sharoitida mavjud vazifalarni sivilizatsiya yo‘llari bilan hal etish, keskinliklarni yumshatish orqali integratsiya jarayonlari uchun barqaror huquqiy, institutsional munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda ham shunga o‘xshash muammolar talaygina hisoblanadi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida “Biz chegaraoldi muammolarini hal etib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish yo‘lida mustahkam poydevor yaratamiz”¹ deb mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishimiz kerak deb ko‘p ta’kidlab keladilar

¹ <https://www.uzavtoyul.uz/cy/print/post/662>

Mintaqa mamlakatlarining hamkorligini asosini tashkil etuvchi muhim qadamlardan biri 1994-yil 15-aprelda imzolangan Erkin savdo hududini tashkil etish bo'yicha Kelishuv hisoblanadi. Mazkur kelishuv mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli va teng huquqli savdo hamkorligini o'rnatuvchi huquqiy bazani shakllantirish maqsadida tashkil etilgan. Mintaqada rivojlanayotgan iqtisodiy-siyosiy jarayonlar obyektiv sabablarga ko'ra integratsiya munosabatlarini yanada chuqurlashtirishni talab etar edi. Shu bois 1994-yilda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston tomonidan Yagona iqtisodiy makon shartnomasi tuzildi. Yuzaga kelgan huquqiy asosni tashkiliy va moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun Davlatlararo kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish banki barpo etildi.¹

Ushbu shartnomaga muvofiq, 1995-2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiya Dasturiga asosan bir qator sohalardagi munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan. Jumladan, mazkur dastur doirasida suv-energetika, yonilg'i resurslaridan foydalanish sohasida hamkorlik yo'lga qo'yilib, davlatlararo gaz quvurlari yotqizildi. Natijada neft-gaz zaxiralari va suv resurslarini bir-biriga yetkazib berish infrastrukturasini yuzaga keldi. 1999-yil Bishkek sammitida 25 ta katta hajmdagi loyiha ma'qullanib, tomonlar mintaqaviy davlatlari energetika tizimlarini hamkorlikda ishlashini ta'minlash va Sirdaryo havzasi suv-energetik resurslaridan tenglik tamoyili asosida foydalanishga kelishib olindi. Oqibatda mintaqadagi integratsiya jarayoni Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati degan nom oldi. Ammo mintaqaviy

¹ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/7_A_Zohidov_R_A_Yuldashev.pdf

qadagi iqtisodiy makonni yaratish bir qator omillar ta'siri ostidagi qiyinchiliklar bilan kechdi.

Jumladan, mintaqa mamlakatlardagi bojxona ma'muriyatchiligida (bojxona, antidemping va soliq masalalari) birdamlikning mavjud emasligi, energiya resurslardan o'zaro manfaatli ravishda ishlatishga to'sqinlik qiladigan jiddiy muammolarning oldi olinmagani hamda sohalarda tuzilgan ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarning bajarilmay qolishi mazkur integratsiya mexanizmi-ning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qildi. Masalan, Qozog'istonning tashqi savdoni tariflar orqali va tarifsiz boshqaruvida qo'shni davlatlar manfaatlari e'tibordan chetda qoldirildi.

Bugungi kunda suv muammosi Markaziy Osiyoda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, Sirdaryo va Amudaryolarning yuqori oqimida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston bir tomondan, va bu daryolarning duyi odimida joylashgan Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistan - ikkinchi tomondan ushbu daryo suvlari taqsimoti buyicha bir biriga qarama-qarshi strategiyani kuzlashi degani. Xususan, Qirgizistonda Qambarota GESi, Tojikistonda esa Rog'un GESi kabi gidroenergiya inshootlarini qurish loyihalarini amalga oshirishda quyi oqim davlatlarining manfaatlari ham xisobga olish zarur.

Bu muammo ham bir qarashda bo'luvchi tabiatga ega bo'lib ko'rinadi. Ammo, bunday "bo'linish" aslida mazkur davlatlarning nechog'li o'zaro bog'liq ekanini va suv taqsimoti masalasini faqat birgalikda hal qilish mumkinligini anglatadi.

Turkiy davlatlar tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) mos ravishda iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy ofatlarning keng tarqalgan salbiy ta'sirlari muammosiga e'tibor qaratishini ham misol keltirish mumkin. Bugungi kunda, Markaziy Osiyo va Turkiya mintaqalarida iqlim o'zgarishlari, suv resurslarini boshqarish va ekologik muammolarga javob berish uchun Yangi va innovativ mexanizmlar talab etilmoqda.¹ Shu bilan birga, Turkiy davlatlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqib, "Turkiy davlatlar ekofondi"ni tashkil etish muhim ekanini ko'rsatish mumkin.

Turkiy davlatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari, ayniqsa, iqlim o'zgarishi va ekologik barqarorlikka oid muammolarga javob berishni talab qiladi. Ayni paytda, Markaziy Osiyo mintaqasida va Turkiyada suv resurslari, havo ifloslanishi va iqlim o'zgarishi kabi muammolar global ta'sirni chuqur his qilmoqda. Ushbu holatlarda Turkiy davlatlarini tashkil etish orqali har bir mamlakatning ekologik manfaatlarini har tomonlama himoya qilish va birgalikda muammolarni hal etish uchun umumiy platforma yaratish zarurligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.²

Mintaqadagi integratsiya jarayonlarini jonlantirish maqsadida 2002 yilga kelib ushbu tuzilma negizida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti tuzildi. Bu tashkilotning maqsad va vazifasi sifatida barcha a'zo davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish, transport tizimining umummintaq-

¹ Халқаро экологик сиёсати ва ишланмаси. (2021). "Марказий Осиёда экологик барқарорлик: Туркий давлатлар учун янги имкониятлар". Халқаро таҳлиллар журналі, 15(2), 65-79.

² Ўзбекистон Республикасининг экинвестиция сиёсати (2022). "Табиий ресурсларни бошқариш ва қайта тиклашга қаратилган ислохотлар". Марказий Осиё иқтисодиёти ва ижтимоий тараққиёт журналі, 8(1), 90-103.

viy tuzilmasini barpo etish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda hal qilish va barqarorlikni mustahkamlash kabi muhim yo'nalishlar belgilab olingan edi. Lekin bu tashkilotni samarali faoliyat ko'rsatishiga, a'zo davlatlar milliy manfaatlarining mushtarakligi ta'minlanmaganligi hamda mamlakat milliy manfaatlarini belgilashda mintaqa manfaatlarini inobatga olinmasligi o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

2005-yilda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi uchrashuvi Yevroosiyo integratsiyalashuv jarayonidagi burilish nuqtasi bo'ldi. Unga ko'ra, Yevroosiyo makonida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida Yangi Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shunday qilib, mintaqadagi mavjud integratsiya jarayonlari mintaqadan tashqaridagi uchinchi mamlakat ishtirokidagi tuzilmalarga ko'cha boshladi. Bu esa o'z navbatida, mintaqa davlatlarining o'zaro integratsiyasi rivojiga to'sqinlik qildi.

Mintaqa mamlakatlarining yagona umummanfaatlarini amalga oshiruvchi tuzilmaning mavjud emasligi mintaqadagi energetika resurslaridan foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya masalalari, transport tizimi, transchegaraviy daryolardan foydalanish kabi muammolarni hal etishni yanada murakkablashtiradi.

2000-yilning 10-oktabrida Ostona shahrida Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlat rahbarlari Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekdilar. Shundan boshlab hamjamiyat o‘z rivojining bir necha bosqichini bosib o‘tdi: 2007-2010-yillar – Bojxona Ittifoqining tuzilishi, 2011-2012-yillar – Erkin savdo hududining (ESH), 2012-yil 1-yanvaridan boshlab esa Yagona iqtisodiy makon (YAIM) hamda 2015-yildan boshlab Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) faoliyat yurita boshladi. Shuningdek, YEOII aksariyat funksiyalarini mazkur ittifoqqa topshirishi bilan o‘z faoliyatini yakunladi.

Mazkur hamjamiyat faoliyati doirasida qabul qilingan 151 ta kelishuvning 87 tasigina o‘z kuchini saqlab qoldi. Shunday qilib, 2014-yil 10-oktabrdagi Minsk sammitida qabul qilingan qarorga asosan 14 yil davomida faoliyat yuritib kelgan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati de-yure o‘z faoliyatini tugatdi. Yevroosiyo g‘oyasi ostida jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan YEOII tovar, xizmat, kapital, ishchi kuchining erkin xarakatlanishini nazarda tutadi. 2014-yil 29-mayda Ostona shahrida Rossiya, Belorussiya va Qozog‘iston prezidentlari tomonidan imzolangan shartnoma Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqini shakllantirishga zamin yaratdi.¹

Mintaqa mamlakatlaridan Qozog‘iston mazkur loyiha ta’asischilaridan biri sifatida e’tirof etilsa, 2014-yilning 23-dekabrida Qirg‘izistonning ittifoqqa a’zo bo‘lishi rasman ma’qullandi.

¹ Евросийе иктисодий хамжамияти. (2014). Евросийе иктисодий иттифоқи ва фаолият юритиш тўғрисидаги қарорлар. Евросийе иктисодий хамжамияти. <https://www.eaeunion.org/ru/>

Hozirgi kunda, YEOII integratsiyasiga a'zo mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlaridagi tafovut, ekport tuzilmasida mineral xomashyo mahsulotlari ulushining yuqoriligi hamda mamlakatlarning integratsiya doirasidagi manfaatlarining bir tomonlama ifodalanishi integratsiya jarayonlarining samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ma'lumki, 2018-yil 15-mart kuni Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining uzoq kutilgan sammiti bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuv O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil qilindi. Mintaqaviy sammitlar ancha vaqt davomida uzilib qolgani uni maslahatlashuv uchrashuvi deb nomlashdi. Qatnashchilar hech qanday hujjatlarni qabul qilmadi va faqat mintaqada mavjud muammolarni muhokama qilish bilan cheklandi. Buni tushunsa bo'ladi, chunki mintaqaviy muammolarni atroflicha muhokama qilib, munosabatlarni qayta tartibga solish kerak.

Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedov Toshkentga qilgan tashrifi chog'ida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Kengashini tuzish tashabbusini avvalgi surdi. Bu juda muhim va strategik ahamiyat kasb etuvchi taklifdir. Oxirgi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida turli muammolar paydo bo'lishiga qaramay mintaqaning ichki rivojlanish qonunlari bari bir yana o'z tabiiy iziga tushmoqda va Yangi integratsion istiqbollar ochila boshladi, deb umid qilishga olib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston pozitsiyasi Markaziy Osiyo davlatlariga qaratilgan bo'lib, o'zaro hamkorlik bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari olg'a surilib, o'z so'zlarida "Davlatlarimiz

aynan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi"¹ - deb ta'kidlab, bu borada mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan o'z takliflarini ham berib o'tganlar.

Hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni taklif qilish bilan O'zbekiston mintaqada hech qanday ustunlikni ko'zlamaydi. O'zbekistonning tashabbuslari barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga oladi va konsensus tamoyiliga asoslanadi. O'zbekistonning tashabbuskor va konstruktiv diplomatiyasi tufayli shakllangan mintaqadagi Yangi siyosiy voqelik Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keng ko'lamli masalalar bo'yicha o'zaro aloqalarni o'rnatishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Buning yorqin misoli 2019-yil noyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahatlashuv yig'ilishi bo'ldi. Uchrashuvlar davomida tomonlar Markaziy Osiyo kun tartibidagi ko'plab muammoli masalalarni hal qilishni muhokama qildilar, ularni hal qilish bir tomonlama yoki ikki tomonlama shaklda amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, bunday uchrashuvlarni doimiy ravishda o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining konsultativ uchrashuvini o'tkazish mintaqada Yangi xalqaro tashkilot yoki o'z ustaviga va millatlararo organlariga ega bo'lgan har qanday integratsiya tuzilishini yaratishni anglatmaydi.

¹ <https://religions.uz/news/detail?id=633>

Ushbu faoliyat faqat mintaqalarni rivojlantirishning muhim masalalari bo'yicha "soatlarni yarashtirishga" qaratilgan bo'ladi.¹

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining amalga oshirilish holatidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani berish mumkin: mintaqada integratsion harakatlarni yo'lga qo'yish mintaqa davlatlari uchun ahamiyat kasb etadi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zlarida quyidagicha ta'kidlaganlar: "Bu Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirishning asosiy shartlardan biridir"².

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda hali yechimini topmagan muammolar ko'p bo'lib bu muammolarni o'zaro hamkorlik asosida konsensus yo'li bilan hal qilish lozim. Bugungi kunda, mintaqa mamlakatlari o'z milliy rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, ma'lum bir hamkorlik tuzilmalaridagi ishtirokini ta'minladi. Bu borada O'zbekistonning SHHT, MDHda faol ishtiroki uning ko'p qirrali tashqi siyosatini olib borish strategiyasiga xizmat qiladi. Mazkur hamkorlik tuzilmalarining mintaqa mamlakatlari manfaatlarini amalga oshirib boruvchi mexanizm sifatida shakllanib borishi kuzatilmoqda, mintaqada integratsiya tuzilmalarini shakllantirish borasida Markaziy Osiyo mamlakatlari katta tajribaga ega bo'lib, milliy manfaatlar umumiyligini ta'minlash borasida ushbu tajribaga tayanish imkoniga egadir.

¹ Yapp, Malcolm. "The Legend of the Great Game". Proceedings of the British Academy: Lectures and Memoirs, Vol. 11, (2000): 179-198.

² <https://strategy.uz/index.php?news=1446>

2.2 O‘zbekiston tashqi siyosatida mintaqaviy tashkilotlarning ahamiyati

Markaziy Osiyodagi turkiy tilli davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishi og‘ir sharoitlarda bo‘lib, ular globallashuvning salbiy oqibatlarini va mintaqadagi yetakchi davlatlarning geostrategik tahdidlariga birgalikda qarshi turishiga to‘sqinlik qilmoqda. Turkiy tilli davlatlarning Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy, mintaqaviy va geosiyosiy dinamikasini qiyosiy tahlil qilish bir qator vazifalarni qo‘yadi. Shunday vaziyat vujudga keldiki, unda Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanishi nafaqat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va millatlararo, suv-energetika, davlatlararo, balki katta ahamiyatga ega geosiyosiy omillar ham ta’sir etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida quyidagicha ta’kidlagan: “Mamlakatlarimiz dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarda o‘zaro mos yoki Yaqin qarash va yondashuvlarga amal qilib kelmoqda. Ayni vaqtda xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga to‘la javob beradigan iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, transport va kommunikatsiya, turizm, ilm-fan va ta’lim kabi sohalarda o‘zaro hamkorlik faol rivojlanmoqda”¹.

Mantiqan ular quyidagilarni rivojlanishiga asos bo‘ldi; amerikalik olimlarning “Katta Markaziy Osiyo” konsepsiyasi, Xitoyning shimoliy hududlari tushunchalari va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi strategiyalari, Rossiyaning Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarga nisbatan strategik yondashuvlari va boshqalar. Hozirgi sharoitda

¹ <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyev-turkij-tilli-davlatlar-hamkorlik-kengashi-sammitida-nutq-sozladi>

Markaziy Osiyo davlatlari mintaqa uchun qulay shartlarda Bojxona ittifoqi, Yagona iqtisodiy makon yoki boshqa integratsion birlashmalarga birgalikda kirish imkonini beruvchi mintaqaviy integratsiya darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ushbu tashkilotga faqat Markaziy Osiyo davlatlari ishtirok etadigan yopiq tashkilot bo'lishi lozim.

Postsovet hududida yaratilgan mintaqaviy tashkilotlar yaxshi natija ko'rsata olmadi. Zamonaviy Markaziy Osiyo tizimli xarakterga ega qarama-qarshilik va mahalliy, millatlararo, etnik, ekologik va davlatlararo ziddiyatlar majmuasidir. Iqtisodiy integratsiya jarayoni-ning tasdiqlanishi umumiy mintaqaviy ziddiyatlarning shakllanishi va rivojlanishining ko'rsatkichidir. Joriy qarama-qarshiliklarni manipulyatsiya qilgan holda, geosiyosiy sheriklar betartiblikni boshqarish nazariyasini aniq davlat darajasida va umuman Markaziy Osiyo mintaqalarida muvaffaqiyatli qo'llashlari va unga amaliy xususiyat berishlari mumkin. Demak, Markaziy Osiyoda turkiy tilli davlatlarni targ'ib qiluvchi mintaqaviylashtirish nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy xavfsizlikni ham ta'minlay oladi.

Markaziy Osiyodagi turkiy tilli mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishi globallashtirishning salbiy oqibatlariga va mintaqadagi yetakchi davlatlarning geostrategik muammolariga qarshi birgalikda kurashishga imkon bermaydigan murakkab sharoitlarda sodir bo'lmoqda.¹

Sovet Ittifoqining qulashi tabiiy ravishda jahon hamjamiyatining, ayniqsa, yirik geosiyosiy o'yinchilarning Markaziy Osiyo mamla-

¹ <https://library.fes.de/pdf-files/bueros/kasachstan/14111.pdf>

katlariga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi, bu esa Yangi yondashuvlarni izlashga va postsovet makonida geosiyosiy konsepsiya zarurligiga olib keldi. 1990-yillar boshida geofazoviy tushunchalar muhim rol o'ynay boshladi va ular postsovet Markaziy Osiyodagi geosiyosiy voqea va jarayonlarga alohida davlatlar yoki jamoalarning tashqi siyosatining quroli sifatida qaraldi.

Bu shunday vaziyatni vujudga keltirdiki, unda Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanishi nafaqat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, etnik, suv-energetika, xalqaro va ayniqsa, mintaqaviy maqsadlarini belgilab qo'ydi, balki geosiyosiy omillar ham katta ta'sir ko'rsatdi. Mavjud vaziyatning sabablarini aniqlash uchun Markaziy Osiyo davlatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini hamda jahon iqtisodiyotidagi o'rnini aniqlash zarur. Shunday qilib, yalpi ichki mahsulot xarid qobiliyati paritetida qariyb 240,7 milliard dollarni tashkil etadi, bu jami jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 0,4 foizini tashkil qiladi Markaziy Osiyo mamlakatlarida katta energiya zahiralar, qora va rangli metallar, kimyoviy xomashyo va boshqa global ahamiyatga ega mineral resurslar jamlangan.¹ Bu mintaqaning barcha mamlakatlariga tegishli. Shunday qilib, xomashyo va energiyaning katta zaxiralari texnologik rivojlanishning nisbatan past darajasi saqlangan. Bu mantiqan tovarga yo'naltirilgan iqtisodiyotning kuchayishiga olib keladi, bu har doim ham Markaziy Osiyo davlatlarining manfaatlariga mos kelmagan, lekin ularning aksariyati iqtisodiy va geosiyosiy sheriklardan qoniqish hosil qiladi. Bu, bizningcha, Markaziy Osiyodagi turkiy tilli davlatlarning geoiqtisodiy

¹ <https://library.fes.de/pdf-files/bueros/kasachstan/14111.pdf>

va mintaqaviy rivojlanishining eng muhim xususiyati bo'lib, ularning jahon iqtisodiyotidagi kelajagiga porloq bo'lishiga sabab bo'ladi.

1991-2013-yillarda Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan o'tkazilgan "Markaziy Osiyo bo'yicha" tadqiqoti ko'plab savollarni tug'dirmoqdaki, bu savollarga javoblar ko'p jihatdan Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishini va iqtisodiyotning tubdan o'zgarib borayotgan sharoitlarini belgilab beradi. Markaziy Osiyo mamlakatlariga nafaqat iqtisodiy va geosiyosiy, balki ilmiy va amaliy qiziqish ham ortib bormoqda. Bundan tashqari, bu holat nafaqat saqlanib qoladi, balki kuchaytiriladi. Hozirgi sharoitda Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy integratsiya darajasini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ularga mintqa va alohida mamlakat sharoitlari uchun qulay shartlarda transport vositasiga, yagona iqtisodiy makonga yoki boshqa integratsiya birlashmalariga birgalikda kirish imkonini beradi. Ayniqsa, jahon tajribasi bu yondashuvning samaradorligidan dalolat beradi.

Afg'oniston, Markaziy Osiyo va Xitoyning Shinjonida ham xuddi shunday holat. Yuqoridagi omillar iqtisodiy integratsiya jarayonining yo'qligi yoki zaif ifodalanishi- mintaqaviy konfliktning shakllanishi va rivojlanishining ko'rsatkichlari hisoblanadi. Mavjud qarama-qarshiliklarni manipulyatsiya qilish orqali geosiyosiy hamkorlardan mintaqada boshqariladigan "Xaus nazariyasi"dan alohida davlatlar va butun Markaziy Osiyo mintaqasi darajasida muvaffaqiyatli foydalanish, unga amaliy xarakter berish mumkin. Buni super kuchlarning asosiy tushunchalari, ularning manfaatlarini aks ettiruvchi strategiyalari tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy va Rossiya o'rtasidagi muammolarga yechim topish uchun chuqur tadqiqotlar olib borishi zarur. Hozirda ikkinchi qutbning shakllanishining boshlanishini kuzatishimiz mumkin, chunki Rossiya va Eron xom neftning xalqaro yetkazib beruvchilari va Xitoyning eng yirik iste'molchisi hisoblanadi. Bunday vaziyatda Rossiya, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun iqtisodiy, texnologik, intellektual sherik davlat sifatida jozibador bo'lishi kerak. Biroq, Rossiya va Markaziy Osiyo hukumatlari tomonidan belgilangan strategik maqsadlar amalga oshirilmagan taqdirda, ichki va tashqi kuchlar ta'sirida reaksiya yuzaga kelishi mumkin, bu esa oldindan aytib bo'lmaydigan natijalarga olib keladi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng mintaqadagi integratsiya jarayoni bir qator bosqichlardan o'tdi, bu ularning asosiy muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari bo'ldi. U mintaqaviy integratsiyaning barcha nazariy qonuniyatlariga javob beradi, ammo bu qonunlarning amalda tatbiq etilishi mintaqaning bu jarayonga tayyor emasligini cheklaydi.

Yevropa Ittifoqidagi (YeI) Beniluks davlatlarining iqtisodiy modeli e'tiborga loyiq bo'lsa, Yevropa Ittifoqidagi Skandinaviya davlatlarining iqtisodiy modeli ham qiziq. Albatta, Markaziy Osiyo mamlakatlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, balki fuqarolik jamiyati yetukligi, demokratiya va aholi mentaliteti bilan ham Yevropa davlatlaridan juda farq qiladi. Biroq asosiy resurs va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'zidan o'nlab marta ustun bo'lgan davlatlar bilan mintaqaviy hamkorlik tajribasini chuqur o'rganishi kerak.

Markaziy Osiyodagi turkiy tilli davlatlarning mintaqaviylashuvi va integratsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy xavfsizlikni ham ta'minlay oladi.¹

Mamlakatimiz tashqi siyosatida 2017-yil ko'p jihatdan tub burilishlar yili bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Belgilab olingan tashqi siyosiy faoliyati yo'nalishi asosan, Yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Ko'p yillardan buyon yechilmay kelayotgan masalalarni birgalikda amalda hal qilina boshladi. Xususan, suv resurslaridan birgalikda foydalanish, chegaralarni belgilash, o'tish punktlarini ochish, transport qatnovini qayta tiklash va kengaytirish kabi ko'plab nozik masalalarning yechimini topdi. Qo'shni davlatlar bilan tovar ayirboshlash bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. Ilk bor mintaqalararo va chegaraoldi hududlar o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi, barcha darajalarda o'zaro aloqalar faollashdi.

Markaziy Osiyoda O'zbekiston asosiy davlat bo'lib, alohida o'rin tutadi. Xorijiy ekspertlar va siyosiy doiralar vakillari ham mintaqaning muhimligini tan olishadi. Toshkent mintaqaning barcha qo'shni davlatlari bilan strategik sheriklik to'g'risidagi bitimlarni imzoladi, bu esa mintaqaviy siyosatni yuqori darajada qurishga imkon beradi. Shu maqsadda olib borilayotgan ishlar mamlakatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va rolini mustahkamlashda ham muhimdir.

Mamlakatning zamonaviy tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari "Taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar darajasida bo'lib, xalqaro maydondagi aloqalarni kengaytirish bo'yicha Yangi

¹ DOI: 10.52837/2579-2970-2022.11.2-22

yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha amaliy qadamlarda aks ettirilgan.

Shu munosabat bilan bir qator tegishli dasturiy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi, shuningdek, dunyo mamlakatlari, jumladan Turkiya, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Afg'oniston bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yo'l xaritalari tasdiqlandi.

Dunyo yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik sheriklik va hamkorlikning muvozanatli tizimini shakllantirish O'zbekiston tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, barqarorlik va xavfsizlikni saqlash va Markaziy Osiyoda hamkorlik qilish uchun qulay sharoitlar yaratish vazifalarini samarali yechimini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

Eng yuqori darajadagi aloqalar tufayli O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari bilan munosabatlarni tubdan Yangi bosqichga olib chiqdi. Yangi tashqi siyosiy yo'nalish mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarda o'zaro aloqalarni faollashtirish va pozitsiyalarini mustahkamlashda namoyon bo'ladi.¹

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgan ilk yillaridanoq integratsion tuzilmalarida o'z manfaatlari doirasida ishtirok etib kelmoqda. Shunday tuzilmalardan biri Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) tashkiloti hisoblanadi. Mazkur tuzilma mintqa mamlakatlarining barchasi ishtirok etayotgan tashkilot hisoblanadi. MDH faoliyati sohasiga quyidagi yo'nalishlar kiritilgan:

¹ <https://xs.uz/uzkr/post/yangilanayotgan-ozbekiston-tashqi-siyosatining-eng-muhim-ustuvor-jonalishlari>

- tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;
- umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish va rivojlantirish, Yevroosiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohotlarni o'tkazish;
- bojxona siyosatini muvofiqlashtirish;
- transport va aloqa, shuningdek, energetika tizimlarini rivojlantirish;
- salomatlik, atrof-muhit va ekologik xavfsizlikni saqlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

MDH doirasida qabul qilingan bitimlar va shartnomalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- 1) integratsion aloqalarni rivojlantirish ixtiyoriylik asosida, ham ikki yoqlama, ham ko'p tomonlama shartnomalardan foydalanish yordamida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- 2) huquqiy integratsiya o'zaro manfaatdorlikka asoslanishi va hamkor davlatlarga ziyon yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratilishi;
- 3) zarurat bo'lganda, MDH a'zolariga ularning mas'uliyati ostida va aniq iqtisodiy natijalarni ko'zda tutib yordam ko'rsatish;
- 4) hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish va ularga har tomonlama yordam ko'rsatish;
- 5) mamlakatlararo munosabatlarda bozor subyektlari orasidagi gorizontal aloqalarga ustuvorlik berish, mikrodarajadagi integratsion aloqalarni, iqtisodiy hamkorlikning Yangi shakllarini keng ko'lamda rivojlantirish.

Yuqoridagi tamoyillar ishlab chiqilsa-da, biroq ular mavjud muammolarni yechish imkonini bermagan. MDH doirasida iqtisodiy integratsiyaga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar tashkiliy-huquqiy asos va hamkorlikka a'zo mamlakatlar o'zaro harakat mexanizmlarining takomillashmaganligi hisoblanadi. Shuningdek, MDHga a'zo mamlakatlar iqtisodiy salohiyatining turli darajada ekanligi, alohida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovut, milliy qonunchilik hujjatlarining muvofiqlashtirilmaganligi kabi omillar ham integratsiya imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelmoqda.

MDHning tashkil topishi bilan a'zo mamlakatlar ishtirokida erkin savdo zonasini shakllantirish jarayoni boshlandi. Mazkur jarayon mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirishga, o'zaro tovar aylanmasida boj to'lovlaridan imtiyozlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Shunga qaramay, ishtirokchi mamlakatlar ko'p tomonlama muzokaralar doirasida erkin savdo rejimidan istisno bo'lgan tovarlar ro'yxatini ishlab chiqilishi va kelishuviga doir yagona bir to'xtamga kela olmadi.

Bundan tashqari, mazkur kelishuv ishtirokchi mamlakatlarning barchasi tomonidan ham imzolanmagan bo'lib, hech qanday amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan holda faqatgina rasmiy xarakterga ega bo'lib qoldi. Shu bois, 2011-yilga kelibgina MDH doirasida Yangi formatdagi erkin savdo zonasi Shartnomasining imzolanishi obektiv zarurat sifatida baholandi. Shunday qilib, mazkur shartnomaning imzolanishi MDH mamlakatlarining tuzilma doirasida savdo-iqtisodiy

munosabatlaridagi integratsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga bo‘lgan urinishlari sifatida o‘z tasdig‘ini topdi.

So‘nggi paytlarda MDHning mintaqada shakllanib borayotgan boshqa integratsion tuzilmalari bilan uyg‘unlashtirib borilishiga bo‘lgan say harakatlar mazkur tuzilmaning istiqboldagi faoliyatiga aks ta‘siri namoyon bo‘lishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Birinchi prezidenti I.A.Karimov: “...ushbu davlatlararo birlashmalarning har biri, jumladan, negizida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tuzilayotgan MDH ham–darvoqe, ushbu ittifoq nima asosda tashkil etilayotgani haqida o‘ylab ko‘rish ham maqsadga muvofiq bo‘lur edi – bir-birini takrorlamasdan, o‘z faoliyatini mustaqil yo‘lga qo‘yishi, rivojlanish konsepsiyasi va uzoq muddatli dasturiga ega bo‘lishi muhim, deb hisoblaymiz. Agar mazkur shartlarga rioya etilmasa, ushbu birlashmalarning o‘zaro muvofiq ravishda faoliyat ko‘rsatishiga umid qilish qiyin”¹, – deb ta‘kidlab o‘tgan. Shu bois, ushbu tuzilma doirasida iqtisodiy integratsiyaga erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni shakllantirgan holda unga erishishning eng optimal yo‘lini belgilab beruvchi puxta strategiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mintaqaviy xavsizlikning muhim muammolarini hal etishda Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) mintaqa davlatlarining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotida muhim o‘ringa ega. Mazkur tashkilotning faoliyati 2001-yil 15-iyunda Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirokida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to‘g‘risida Deklaratsiya imzolanishi bilan boshlandi. Uning asosiy maqsadlari a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlikni mustahkamlash; siyosiy, savdo-

¹ <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-islom-karimovning-musta-il>

iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ta'lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalarda samarali hamkorlikni rivojlantirish; birgalikda sa'y-harakatlar bilan mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash; demokratik, adolatli, ratsional, siyosiy va iqtisodiy xalqaro tartibni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkiloti bo'yicha ta'kidlagan quyidagi so'zlari ham bejizga emas: "Bizning mamlakatimiz uchun Shanxay hamkorlik tashkilotining iqtisodiyot, jumladan, transport kommunikatsiyalarini qurish va qayta tiklash sohasidagi faoliyatini ham faollashtirish, ushbu tashkilot bilan hamkorlikdan manfaatdor boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. SHHTning roli va mavqeini yanada mustahkamlash bizning "Shanxay ruhi" hamda tashkilotning tamoyil va qadriyatlariga nechog'liq amal qilishimizga bog'liq bo'ladi. Markaziy Osiyo bundan keyin ham SHHTning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi zarur."¹

Hozirgi SHHT tarkibiga kiruvchi davlatlar hududi Yevroosiyo umumiy hududining 61%ni yani 34 mln km² tashkil etadi. Demografik jihatdan esa dunyo aholisining yarmi SHHT ga a'zo davlatlar hududida istiqomat qiladi. Jahon tajribasi umumbashariy va mintaqaiy muam-molarga qarshi kurashishning samarali usuli mustahkam va ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda.

Tashkilotning istiqboli haqida O'zbekiston birinchi prezidenti I.Karimov ta'biri bilan shuni aytish mumkin: "SHHTning iqtisodiy

¹ Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: О'zbekiston нашриёти, 2021. Б. - 351

yo‘nalishida Markaziy Osiyo umumiy bozorining shakllanishi masalasiga keng o‘rin berilishi zarur. Ushbu vazifaning amalga oshirilishi mintaqa mamlakatlarining strategik manfaatlariga mos keladi. Rossiya va Xitoyning faol sherikchiligi asosida tuziladigan umumiy bozor mintaqada salohiyatli, yirik hajmdagi va yagona yondashuvlar, huquqiy me‘yorlar va qoidalarga tayangan tovarlar, xizmatlar, mehnat va kapital bozoriga aylana oladi. SHHT doirasida mintaqaning harbiy-siyosiy xavfsizligini ta‘minlash bilan iqtisodiy rivojlanishiga doir strategiyalari mintaqa mamlakatlari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda.”¹

2003-yilda Pekinda hukumat rahbarlari kengashi a‘zo davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik Dasturi qabul qilinib, unda transport infrastrukturasini, energetika, atrof-muhitni himoya qilish va suv muammolarini hal etish bo‘yicha masalalar o‘z aksini topgan. Mazkur dastur uzoq muddatga, ya‘ni 2020-yilga qadar tashkilotga a‘zo davlatlarning o‘zaro manfaatdorlik asosida mintaqaviy resurslardan samarali foydalanish, mahsulotlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin xarakatlanishini ta‘minlash maqsadida savdo va investitsiyalarga qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan edi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlarining SHHTdagi ishtiroki Rossiya Federatsiyasi va Xitoy bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish hamda mintaqadagi barqarorlikni ta‘minlashda Moskva va Pekin o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi instrument sifatida ham baholanadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. –Б. 265.

Markaziy Osiyo davlatlari qatorida O'zbekistonning SHHT faoliyatidagi ishtirokining ustuvor yo'nalishlaridan biri mintaqadagi xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi hamkorligiga yo'naltirilgan. Bu borada Markaziy Osiyo hududida terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashishda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT)ni ta'kidlab o'tish lozim. 2002-yilda a'zo mamlakatlar o'rtasidagi Kelishuvga asosan tashkil topgan ushbu tuzilma 2004-yil yanvardan boshlab Toshkentda o'z faoliyatini domiy tartibda amalga oshirib kelmoqda.¹ Shunday qilib, mazkur tuzilmani, mintqa xavfsizligini ta'minlash borasidagi milliy manfaatlar uyg'unligiga olib keluvchi samarali institutsional mexanizm sifatida ko'rish mumkin.

O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti davlatlari bilan do'stona aloqalarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti tarkibiga O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya kiradi. Vengriya, Turkmaniston va Shimoliy Kipr turk Respublikasi uning faoliyati kuzatuvchisi sifatida ishtirok etadi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini Turkiy davlatlar tashkiloti deb qayta nomlash to'g'risida qaror qabul qilinishi Tashkilotga a'zo davlatlarning jiddiy maqsadlari va uzoq muddatli rejalari tasdig'idir. Bu tarzda birlashish, birinchidan, Kavkaz va Markaziy Osiyoda Yangi rivojlanayotgan transport hamda energetika yo'laklari tarmog'i bo'ylab ishonchli xavfsizlik va hamkorlik uzviyligini ta'minlashdir. Bu nafaqat a'zo davlatlar o'rtasida

¹ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/7_A_Zohidov_R_A_Yuldashev.pdf

savdo aloqalarini kengaytirish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi, balki tashkilotning iqtisodiy mustaqilligi va farovonligiga erishish bilan birga, bu yo'ldagi barcha global xurujlar, jumladan, Afg'oniston hududidan (terrorizm, noqonuniy migratsiya, transmilliy jinoyatlar va boshqa) tahdidlarga qarshi turish omili hamdir.

Shuningdek, bu Tashkilotga a'zo mamlakatlarning qandaydir tarzda haddan ziyod geosiyosiy ambitsiyalar va yaratilayotgan transmilliy loyihalar faoliyatida ishtirok etayotgan boshqa xalqaro kuchlar bosimiga qarshi turishida ko'mak beradi.

Qolaversa, bu XXI asrning murakkab global sharoitida davlatchilikni saqlab qolish va yanada rivojlanish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Zero, global madaniyatning salbiy asoratlari tarqalishi va qadriyatlar yemirilishi jarayoni kechayotgan bir davrda tashkilotga a'zo davlatlar xalqlarining madaniy o'ziga xos jihatlarini saqlab qolish juda muhim. Hozirgi siyosiy jarayonlarida bu yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyoda tashqi kuchlar markazlarining qarama-qarshi manfaatlarini va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi siyosiy, iqtisodiy va strategik muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti o'zining mintaqaviy integratsiyasini "mintaqaviy yopiqlik" konsepsiyasi asosida rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratadi. Bu konsepsiya, o'z navbatida, a'zolarining umumiy manfaatlarini va barqarorlikni saqlashni ta'minlaydi, shu bilan birga,

Turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va tashqi kuchlar markazlarining ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan.¹

“Mintaqaviy yopiqlik” konsepsiyasi, asosan, Turkiy davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyani kuchaytirishni nazarda tutadi. Bu, shuningdek, mintaqaga tashqi ta'sirlarning salbiy ta'sirini kamaytirish, Turkiy davlatlarning hududiy himoyasini yanada mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Bunday yondashuvning eng muhim elementlaridan biri — Turkiy davlatlar orasidagi umumiy manfaatlar, ayniqsa, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va madaniy aloqalar.

“Mintaqaviy yopiqlik” konsepsiyasining amalga oshirilishi, mintaqada davlatlarining umumiy manfaatlari asosida bir qator mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu mexanizmlar, o'z navbatida, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish, va madaniy aloqalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.²

Turkiy davlatlar tashkiloti bu borada bir qator ijobiy qadamlarni amalga oshirgan. Masalan, mintaqaviy savdoning yanada rivojlanishi, transport va logistika sohasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi, va xavfsizlik masalalaridagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlikni saqlash uchun muhim qadamlardir. Shuningdek, Turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash

¹ Рамазанов, Ш. (2021). Туркий давлатлар ташкилотининг минтақавий интеграцияси. Халқаро муносабатлар ва сиёсат. 45(3), 78-92.

² Байрамова, М. (2022). “Минтақавий ёпиқлик” концепцияси ва унинг Марказий Осиёдаги аҳамияти. Сиёсий таҳлиллар ва стратегик тадқиқотлар журналі, 12(4), 34-49.

uchun Yangidan-Yangi dasturlar va inshofiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Albatta, globallashuv yo‘liga qadam qo‘ygan davlatlar hamda jahonning yetakchi mamlakatlari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish ilm-fan, ta‘lim, shaharsozlik va texnologiya rivojiga foydali ta‘sir ko‘rsatishi aniq. Qolaversa, bu iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit muammolarini hal etish va sobiq ittifoqqa a‘zo bo‘lgan davlatlarning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishida ko‘mak hamdir. Biroq, bu:

- ijtimoiy mobillik va ko‘plab turkiy muhojirlar, jumladan, radikal oqimlarning ayrim vakillari bilan aloqalarni kuchaytirishi mumkin;

- Turkiyaning Markaziy Osiyo va Kavkazdagi raqiblari – Rossiya va Xitoy bilan munosabatlarida geosiyosiy keskinlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarining Turkiya bilan Yaqinlashuvi Turkiyaning yana bir raqibi – Eron uchun ham tashvishli (garchi, har ikki davlat Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) a‘zosi bo‘lib, ularning qarama-qarshiliklari ancha tartibga solingan bo‘lsa-da) tus olmoqda. Ushbu holat Eronning SHHTga a‘zo sifatida qabul qilingani bilan yanada dolzarblashmoqda.

Umuman olganda, mintaqaviy jarayonlarda ishtirok etayotgan aksariyat mamlakatlarda mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi mavjud. Qolaversa, Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar bir vaqtning o‘zida YEOII va SHHTga a‘zo ekanliklari hisobga olinsa, barcha tomonlar munozarali masalalarni qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, hal etish imkoniyatiga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiy tilli davlatlar bilan aloqalarni Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida rivojlantirish, mintaq davlatlarining o‘zaro hamkorlik munosabatlarini shakllantirish Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatining asosi va barqaror istiqboli bo‘lishi mumkin. Mintaqa davlatlarining tashkilotda ishtirok etishi mintaqaviy integratsion jarayonlarni to‘ldiradi va bu jarayonni yanada faollashtirishga xizmat qiladi. Integratsion jarayonlar bir tomonlama manfaatga qaratilmasdan, balki, o‘zaro teng manfaatli hamkorlikni ko‘zlashi tashkilot istiqbolini belgilovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

2.3 O‘zbekiston milliy manfaatlari tizimida Turkiy davlatlar tashkilotining tutgan o‘rni.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ichki siyosatida kuzatilayotgan keng qamrovli islohotlar, ochiqlik va Yangilanishlar, mamlakatning tashqi siyosatida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, mintaq va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e’tirof etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat tashqi siyosati yo‘nalishida: “Tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz. Hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari O‘zbekiston hududida joylashishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarimizning

mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, bundan buyon ham davlatimizning qat'iy siyosiy pozitsiyasi bo'lib qoladi.”¹ – deb ta'kidlaganlar.

Jahon bo'ylab tarqalgan koronavirus infeksiyasi va global darajadagi inqirozli xavf-xatarlar davrida ham O'zbekiston mamlakatida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, mintaqa davlatlari va jahon hamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirishga alohida etibor qaratdi.

Ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o'z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo'shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, Yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab berdi.

Tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarga ixtisoslashgan vazirlik va idoralarning faoliyati takomillashishi, elchixonalar va diplomatlarning ish uslublari Yangilanishi, mas'uliyati oshirilishi, ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi, Yangi diplomatik vakolatxonalar ochilishi O'zbekistonni jahonga Yangicha nigoh bilan namoyon bo'lishiga imkon yaratdi. O'zbekistonning xalqaro hamkorlikdan ko'zlagan maqsad va vazifalari aniqlashtirildi, boyitildi, milliy manfaatlarimizni himoya qilishda Yangicha – g'ayrat-shijoatli, dadil hamda konstruktiv yondashuvlar hayotga tadbiq etildi. O'zbekiston

¹ Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: O'zbekiston nashriёти, 2021. Б.312.

ikkitomonlama vositalar bilangina cheklanib qolmasdan, ko‘ptomonlama muloqot mexanizmlaridan ham samarali foydalanmoqda.

Bunday ijobiy o‘zgarishlar tashqi siyosatda qisqa muddatlarda muhim tarixiy yutuqlarni qo‘lga kiritilishiga asos bo‘ldi. Davlatimizning do‘stlari ko‘paydi, Markaziy Osiyo va mintaqa atrofida yig‘ilib qolgan qator dolzarb masalalarga yechim topildi, qo‘shni, Yaqin va uzoq mamlakatlar bilan mutlaqo Yangi – sog‘lom siyosiy va iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Yurtimiz va mintaqamizning xorijiy sarmoyador va sayyohlar uchun jozibadorligi ortdi, rahbarimizning tashqi siyosatdagi tashabbuslari izchil amalga osha boshladi.¹

Yillar davomida qabul qilingan Davlat dasturlari doirasida O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini, jumladan, Markaziy Osiyo yo‘nalishida ham izchil davom ettirildi.

Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan Yangi bosqichga olib chiqish borasida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bo‘yicha davlat idoralari tomonidan yuqori darajada tashrif va turli tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda “xalq diplomatiyasi” amalda juda faol bo‘lgani kuzatildi. Xususan, xalq vakillari – olimlar va rassomlar, madaniyat va din arboblari, ishbilarmonlar va yoshlar, turizm va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar ishtirokida 90 dan ortiq turli uchrashuvlar, anjumanlar, videokonfrensiyalar va boshqa shu kabi tadbirlar o‘tkazildi.

¹ <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-turkiy-kengashga-azo-davlatlar-bilan-ananaviy-amko-03-10-2019>

Qayd etish joizki, so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarini qo‘shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch mustahkamlandi, davlat rahbarlarining Maslahatlashuv uchrashuvlari yo‘lga qo‘yildi.

Natijada mintaqadagi ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik darajasi Yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2017-2019-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o‘rtacha 50 foizdan ko‘proqqa o‘sib, 5,2 mlrd. dollarga yetgan. 2020-yil natijalariga ko‘ra esa, global pandemiya sharoitiga qaramay, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 5 mlrd. dollarni tashkil etdi.¹

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning mana shunday yaxshilanishi, umuman aytganda, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi. Shuningdek, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o‘ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o‘tish kabi murakkab va chalkash muammolarga yechim topildi. Agar besh yil oldin o‘zbek-qirg‘iz davlat chegarasini kuniga 200–300 kishi kesib o‘tgan bo‘lsa, global pandemiya ta’sirida joriy qilingan cheklavlarga

¹ https://uza.uz/uz/posts/markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-dostona-hamkorlik_256986

qadar bu ko'rsatgich kuniga 30 ming kishiga yetgan, O'zbekiston-Tojikiston chegarasini esa kuniga 20 ming fuqaro kesib o'tgan.¹

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan olib borayotgan ochiq va konstruktiv siyosati naqadar to'g'ri ekanini global pandemiya davrida mintaqa rahbarlarining o'zaro yordam va koronavirus tarqalishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha amalga oshirgan qo'shma chora-tadbirlari ham isbotladi.

Jahon hamjamiyatida Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli oshib borayotganini mintaqa va yirik davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning turli formatlari tashkil qilinayotganida ham ko'rishimiz mumkin.

Mavjud "Markaziy Osiyo – AQSH", "Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi", "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo – Yaponiya" kabi muloqot formatlari qatoriga oxirgi yillarda "Markaziy Osiyo – Hindiston", "Markaziy Osiyo – Xitoy" va "Markaziy Osiyo – Rossiya Federatsiyasi" singari Yangi formatlar qo'shildi. Mazkur holat, birinchidan, mintaqadagi ijobiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan mutlaqo Yangi muhit dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan e'tiborning oshganini ko'rsatsa, ikkinchidan, chet el davlatlari mintaqa mamlakatlari bilan nafaqat ikki tomonlama hamkorlik doirasida, balki yagona mintaqaviy ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga ahamiyat qaratayotganidan dalolatdir.

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, xalq farovonligiga, ikkinchidan, mintaqaning

¹ <https://strategy.uz/index.php?news=1278>

investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston va mintaqa davlatlari o'rtasida shakllangan va yanada mustahkamlanib borayotgan Yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o'zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston o'zining asosiy tashqi siyosiy sa'y-harakatlarini 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab oldi. Quyidagilar mamlakatning tashqi siyosat sohasidagi asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida qayd etilgan:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, xalqaro munosabatlarning to'laqonli subyekti sifatida mamlakatning o'рни va rolini yanada mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo'shilish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik kamarini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro imidjini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida obyektiv ma'lumotlarni yetkazish;

- O'zbekiston tashqi siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyati uchun me'yortiv-huquqiy bazani hamda xalqaro hamkorlikning huquqiy bazasini takomillashtirish;

- O'zbekistonning davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal qilish.

“Mamlakatlarimizning xalqaro va mintaqaviy masalalarda o'xshash yoki Yaqin qarashlari va yondashuvlari mavjud. Shu bilan

birga, xalqimizning hayotiy manfaatlariga javob beradigan iqtisodiyot, sarmoyalar, innovatsiyalar, transport-kommunikatsiya, turizm, fan va ta'lim kabi sohalarda hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Biz Turkiy davlatlar tashkilotidoirasida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni istaymiz. Ushbu bosqichda biz tashkilot faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda ishtirok etishga tayyormiz.”¹ – deya Prezident O'zbekistonning tashqi siyosatdagi ustivor yo'nalishlaridan birini ta'kidladilar.

Mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat. Bizning bunday yondashuvimiz iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda hamkorlik uchun kulay shart-sharoitlarni yaratish vazifalarining samarali hal qilinishini ta'minlashga qaratilgan.²

Turkiy davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida taraqqiyot strategiyasida ham belgilangan. 2019-yil sentabr oyida O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'ldi. Uzoq muddatli istiqbolda Turkiy davlatlar tashkiloti submintaqaviy birlashma, Yevropa, Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo o'rtasidagi keng miqyosda mintaqaviy hamkorlik mexanizmining o'ziga xos tizimiga aylanishi kerak. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) deb qayta nomlash to'g'risida qaror qabul

¹ Туркий давлатлар ташкилоти. (2023). Туркий давлатлар ташкилоти доирасида ўзаро ҳамкорлик ва фаолиятнинг ривожланиши. Туркий давлатлар ташкилоти. <https://www.turkic-council.org/>

² Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: O'zbekiston нашриёти, 2021. Б.334.

qilinishi Tashkilotga a'zo davlatlarning jiddiy maqsadlari va uzoq muddatli rejalari tasdig'idir.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtiroki tashkilotni Yangi bosqichga ko'taradi degan fikrlarga ko'plab mutaxassislar qo'shiladi. Bunday yondashuv O'zbekistonning geografik joylashuvi, kuchli armiyaga ega bo'lishi va 34 milliondan ortiq aholisi bo'lgan mintaqaviy kuch bo'lishi kabi sabablardan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtirokiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni, tashkilot doirasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni va tashkilotning xalqaro maydondagi og'irligini quyidagicha eslatib o'tish mumkin:

Demografik omillar: O'zbekiston 34 milliondan oshiq aholisi bo'lgan TDTning boshqa davlatlari qatorida Turkiyadan keyingi o'rinda turadi. Aholining umumiy sonining o'sishi odatda har qanday tashkilotning xalqaro munosabatlarda og'irligi va ta'sirini oshiruvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, aholisi ko'p bo'lgan mamlakatga Yangi a'zo sifatida qo'shilish tashkilot doirasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarga ta'sir qiladi.

Geografik omil: O'zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan va mintaqa mamlakatlari o'rtasida transportni ta'minlash nuqtai nazaridan foydali geografiyaga ega. Ayniqsa, Xitoy va Yevropa o'rtasida tijorat faolligining oshishi bilan transportda juda jiddiy muqobil sifatida paydo bo'lgan "O'rta koridor" sharoitida bu ikki tomonlama, uch tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarning jiddiy rivojlanishiga imkon beradi.

Xavfsizlik omili: Markaziy Osiyoda eng kuchli armiyaga ega bo'lgan O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zolik mintaqada tinchlikni ta'minlash maqsadida harbiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi vaqtda ikki tomonlama rivojlanayotgan harbiy hamkorlikni Kengash doirasida muvofiqlashtirilgan va ko'p o'lchovli darajaga ko'tarish mumkin.

Turizm omili: 2014-yilda Turkiy Kengashning Bodrum sammitida davlat rahbarlari tomonidan berilgan ko'rsatmalarga binoan "Zamonaviy Ipak yo'li qo'shma sayohati to'plami" tayyorlandi. Jahon tarixiy merosining eng muhim markazlaridan biri hisoblangan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotining a'zosi bo'lishi turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi. Hozirda 101 mamlakatning tranzit yo'lovchilariga 5 kun davomida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lishiga imkon beruvchi dastur ishga tushirildi. So'nggi yilda O'zbekistonda turizm sohasidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, O'zbekistonning "Zamonaviy Ipak yo'li qo'shma turistik to'plami"ga qo'shilishi Turkiy davlatlar tashkilotining sayyohlik salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Iqtisodiy omil: O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkilotining 6-sammitidagi nutqida O'zbekistondagi sarmoyaviy imkoniyatlar va sarmoyadorlar imkoniyatlariga e'tibor qaratdi va Toshkentda Turkiy davlatlar tashkilotining biznes forumini tashkil etishga chaqirdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lishdagi iqtisodiy hissi haqida gap ketganda, u boshqa mamlakatlar uchun majburiy hal qiluvchi rolga ega. Tashkilotda O'zbekistonning mavqeini ko'taradigan vaziyat a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'plab iqtisodiy ziddiyatlardan kelib chiqadi. Tashkilotning amaldagi a'zolari orasida iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni qiyinlashtiradigan masalalarni quyidagicha sanab o'tish mumkin:

Tashkilot bilan hamkorlikni faollashtirish mamlakatimizga qo'shni davlatlar va mintaqaviy bo'lmagan Yaqin sheriklar (Turkiya, Ozarbayjon) bilan ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirish uchun Yangi imkoniyatlar ochadi. Tashkilot ishida doimiy a'zo sifatida ishtirok etish Toshkentga uning tashabbuslarini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish uchun qo'shimcha siyosiy va diplomatik manbalar beradi, shuningdek, mamlakatning xalqaro obro'si va maqomini markazlardan biri sifatida mustahkamlaydi.¹ Shuningdek, YEOII tashkilotiga muqobil sifatida O'zbekiston manfaatlari uchun xizmat qiladigan omil bo'ladi.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zoligi turli iqtisodiyot va moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan hamkorlikni rivojlantirishda juda muhimdir. Chunki O'zbekiston; Qirg'iziston va Qozog'iston singari, u ham Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo emas va shu sababli iqtisodiy siyosat nuqtai nazaridan mustaqil qaror qabul qilish vakolatiga ega. Shu bilan birga, O'zbekiston investitsiyalar

¹ <https://www.academia.edu/es/43149597>

uchun boy tabiiy resurslarga ega bo'lsa-da, 32 million aholisi bo'lgan muhim iste'mol bozori ham hisoblanadi.

Natijada, O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zoligi vaqt jihatidan ham muhimdir. Chunki xalqaro maydondagi o'zgarishlar va ko'p qutbli dunyoga o'tish jarayonida O'zbekistonning tashkilotdagi ishtiroki Yangi kuch markazini shakllantirishdagi qo'shimcha qadam bo'ladi.

O'zbekiston — boshqa ko'p tomonlama formatlar qatori Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham oddiy kuzatuvchi emas, balki o'z qarashlarini taklif etuvchi faol ishtirokchi bo'lib, bu bilan tashkilot kun tartibini bugungi kun voqeligiga mos ravishda boyitishga hissa qo'shmoqda.

Dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar fonida Turkiy davlatlar tashkilotining istiqbolli mintaqaviy tashkilot sifatidagi mavqei va strategik ahamiyati ortib bormoqda. U Markaziy Osiyodagi boshqa mintaqaviy platformalar va tashabbuslarni to'ldiradi, mintaqalararo aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shadi. O'zbekiston Tashkilotni amalga oshirilmagan katta imkoniyatlar va birlashtiruvchi salohiyatga ega mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmi deb biladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Prezidenti TDT doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 35 dan ortiq aniq tashabbuslarni avvalgi surdi. Bugungi kunga qadar 20 dan ortiq tashabbuslar ro'yobga chiqarildi¹, xususan:

¹ <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-va-turkiy-davlatlar-tashkiloti-shavkat-mirziyoyev-qanday-tashabbuslarni-ilgari-surgan> 423718

– 2021-yil sentabr oyida O‘zbekistonda Yosh tadbirkorlar forumi tashkil etildi va uning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi;

– transport va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirildi: O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida “ye-Permit” pilot loyihasi sinovdan o‘tkazildi, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida “raqamli TIR” va “yashil yo‘lak” pilot loyihalari ishga tushirildi;

– O‘zbekistonning “Universal Logistics Service” (Toshkent), “Akhtachi” (Andijon) va “Termez Cargo Centre” (Surxondaryo) logistika markazlari Turkiy davlatlar tashkilotining “Birodar portlar” jarayoniga qo‘shildi;

– COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashish yo‘lida hamkorlik bo‘yicha takliflar amalga oshirildi, pandemiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus muvofiqlashtiruvchi guruh hamda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida epidemiologik vaziyatni birgalikda monitoring, tahlil qilish va prognozlash bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi tizimi shakllantirildi;

– 2021-yil iyun oyida TDTga a‘zo davlatlar turizm vazirlarining 6-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Qo‘qon 2022-yilda “Turk dunyosining turistik poytaxti” deb e‘lon qilindi;

– “Tabarruk ziyorat” loyihasi ishga tushirilib, Turizm bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilindi;

– Qo‘qon shahrini “Turk dunyosining turistik poytaxti” maqomiga avvalgi surish doirasida ushbu shaharda 2022-yil 8-10-iyun kunlari “Qo‘qon xonligining turkiy xalqlar davlatchiligi va madaniy merosini rivojlantirishdagi o‘rni” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi;

– 2022-yil iyul oyida Toshkent shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar qishloq xo'jaligi vazirlarining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi va a'zo davlatlarning sohaga doir vazirliklari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda a'zo davlatlar va kuzatuvchilar ishbilarmon doiralarning 300 dan ortiq vakillari ishtirokida Birinchi Turkiy Agroforum tashkil etildi;

– “Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yili” doirasida 2022-yil iyun oyida Buxoro shahrida Yosh liderlarning IV forumi tashkil etildi. Forum davomida Buxoro “Turk dunyosining birinchi yoshlar poytaxti” deb e'lon qilindi;

– Alisher Navoiy nomidagi “Turk dunyosi birligini ta'minlashga qo'shgan hissasi uchun” xalqaro mukofoti ta'sis etildi;

– Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Muso Al-Xorazmiy kabi allomalarning madaniy merosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazdi;

– Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'yicha Turkiy davlatlar tashkiloti tuzilmasi, Turkiy xalqlar merosini o'rganish xalqaro markazi, IT-mutaxassislar platformasi, Injiniring-texnologiya markazi va Turkiy davlatlarning savdo hamkorligi bo'yicha tadqiqot markazi va boshqalarni yaratishga doir konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda.¹

Bu va boshqa tashabbuslar Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ko'p qirrali hamkorlikning Yangi formatlarini yo'lga qo'yish, uning institutsional va amaliy salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi.

¹ <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyev-turkij-tilli-davlatlar-hamkorlik-kengashi-sammitida-ishtirok-etish-uchun-istanbul-shahriga-keldi>

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo bo‘lishi turkiy dunyo birligini mustahkamlashda muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekiston turkiy dunyoning ajralmas qismi sifatida tashkilotning shakllanishida va Turkiy Davlatlar Tashkilotiga rasman kirishidan oldin hamisha ishtirok etgan. U hamisha ma‘naviy merosi turkiy-islom sivilizatsiyasining asosiy negizlaridan biri, iqtisodiy va madaniy beshigi bo‘lgan mamlakat bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi.¹

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil oktabr, 2020-yil aprelda Bokuda, 2021-yil martda Turkistonda va 2021-yil noyabrda Istanbulda bo‘lib o‘tgan sammitlarda avvalgi surilgan aniq tashabbuslar tufayli tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli sheriklik uchun avval foydalanilmagan imkoniyatlar ochilmoqda.

2021-yil turkiy dunyo uchun muhim voqealarga boy samarali yil bo‘ldi. Bunda O‘zbekistonning rolini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. 2021-yil iyun oyida Qo‘qon shahrida turizm vazirlarining 6-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, unda avvalroq O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan “Tabarruk ziyorat” loyihasini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar ushbu loyihani har tomonlama qo‘llab-quvvatladilar, uni amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruh tuzish va ishtirokchi davlatlarning ziyoratgohlarining turistik xaritasini yaratishga kelishib oldilar. Shu munosabat bilan Qo‘qon shahri ilk bor “Turk dunyosining turistik poytaxti” deb e‘lon qilindi.

Xiva shahri “Turk dunyosi madaniyati poytaxti” deb e‘lon qilingani munosabati bilan 2021-yil sentabr oyida Xivada “Markaziy

¹ https://uza.uz/uz/posts/turkiy-davlatlar-tashkiloti-hamkorlik-istiqbollari_422735

Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniyat forumi, shuningdek, “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniyat forumi bo‘lib o‘tdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Turkiy davlatlar tashkilotining Alisher Navoiy nomidagi “Turk dunyosi birligiga qo‘shgan hissasi uchun” xalqaro mukofotining ta’sis etilishi turkiy xalqlarni birlashtirishdagi alohida o‘rni va hissasi muhim voqea bo‘ldi.

O‘zbekiston 2023-yilda TDT doirasida raqamli transformatsiyani jadallashtirish uchun Yangi formatlarni avvalgi surdi. Ushbu tashabbus doirasida o‘zaro raqamli xizmatlar, elektron savdo va axborot texnologiyalarini birlashtirish, shuningdek, raqamli iqtisodiy makonni yaratish maqsad qilindi. O‘zbekistonning taklifiga binoan, TDT davlatlari o‘rtasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va bojxona operatsiyalarini raqamlashtirish kabi masalalarga e’tibor qaratildi.¹

O‘zbekiston ekologik muammolarga qarshi kurashish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha muhim tashabbuslarni avvalgi surdi. Bu borada, ayniqsa, barqaror energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, suv resurslaridan samarali foydalanish va global iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishda o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar bildirildi. Bu sohada TDT davlatlari birgalikda "yashil" energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik xavflarni kamaytirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirishga kelishildi.

¹ Туркий давлатлар ташкилоти. (2023). Туркий давлатлар ташкилоти доирасида савдо, сармоя ва иқтисодий ҳамкорлик. Туркий давлатлар ташкилоти. <https://www.turkic-council.org>

O‘zbekiston 2023-yilda TDT doirasida ta’lim va ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar bilan chiqdi. Bu tashabbuslar orasida Turkiy davlatlar orasidagi o‘quv dasturlarini standartlashtirish, ilmiy tadqiqotlar va texnoparklarni ishlab chiqish, shuningdek, turkiy tildagi ta’lim va akademik almashinuvlarni yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar bor. O‘zbekistonning taklifiga ko‘ra, TDT davlatlari o‘rtasida akademik mobillikni oshirish va umumiy ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun ko‘plab sa’y-harakatlar zarur deb topildi.

O‘zbekiston savdo va iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish uchun Yangi mexanizmlarni ishlab chiqdi. Bu borada, o‘zaro tovar, kapital va xizmatlar almashinuvini yengillashtirish, savdo jarayonlarini soddalashtirish, moliyaviy operatsiyalarni ko‘p qirrali formatlarda amalga oshirishga qaratilgan tashabbuslar avvalgi surildi.¹ Ushbu tashabbuslar davomida TDT davlatlari o‘rtasidagi bojxona va tranzit operatsiyalarini soddalashtirish va moliyaviy tizimlarning integratsiyasini yaxshilashga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ko‘p qirrali hamkorlikning Yangi formatlarini joriy qilishga qaratilgan tashabbuslari juda muhim ahamiyatga ega. Bu tashabbuslar integratsiyaning barcha sohalarini qamrab olgan va TDT a’zo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Shu orqali, O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikning Yangi bosqichiga qadam qo‘ydi va barqaror rivojlanish uchun zaruriy asoslarni yaratdi.

¹ Абдурахманова, Ф. (2022). Туркий давлатлар ташкилоти доирасида экологик ҳамкорлик: Ўзбекистоннинг ташаббуслари. Марказий Осиё ва Экологик Иқтисодий Ҳамкорлик, 5(2), 45-59.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahon siyosati va iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning rivojlanish alomatlari o'zgarib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashib, ushbu mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi munosabatlarini tobora kengaytirib borish harakatini jadallashtirgan. Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasining o'zaro hamkorlik aloqalari ham yuqori bosqichli rivojlanishga o'tdi. Ushbu tashkilotning barcha a'zo davlatlari o'zaro qardosh xalqlar sifatida azaliy do'stlik aloqalarini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish strategiyalari mintaq va jahonda tinchlik, barqarorlik hamda hamkorlikni ta'minlash yo'lida muhim ahamiyat kasb etishini dunyo ommasiga namoyon etmoqda. Tashkilot ishida doimiy a'zo sifatida ishtirok etish bizga xalqaro maydonda o'z tashabbuslarimizni avvalgi surish, shuningdek, mamlakatimizning turkiy-islomiy taraqqiyot markazlaridan biri sifatidagi jahondagi nufuzi va maqomini mustahkamlash uchun qo'shimcha siyosiy-diplomatik resurslarni yaratadi.

Markaziy Osiyoda hali yechimini topmagan muammolar ko'p bo'lib bu muammolarni o'zaro hamkorlik asosida konsensus yo'li bilan hal qilish lozim. Bugungi kunda, mintaq mamlakatlari o'z milliy rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, ma'lum bir hamkorlik tuzilmalaridagi ishtirokini ta'minladi. Bu borada O'zbekistonning SHHT, MDHda faol ishtiroki uning ko'p qirrali tashqi siyosatini olib borish strategiyasiga xizmat qiladi. Mazkur hamkorlik tuzilmalarining mintaq mamlakatlari manfaatlarini amalga oshirib boruvchi mexanizm sifatida shakllanib borishi

kuzatilmoqda, mintaqada integratsiya tuzilmalarini shakllantirish borasida Markaziy Osiyo mamlakatlari katta tajribaga ega bo'lib, milliy manfaatlar umumiyligini ta'minlash borasida ushbu tajribaga tayanish imkoniga egadir.

Turkiy tilli davlatlar bilan aloqalarni Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida rivojlantirish, mintaqa davlatlarining o'zaro hamkorlik munosabatlarini shakllantirish tashkilot faoliyatining asosi va barqaror istiqboli bo'lishi mumkin. Mintaqa davlatlarining Turkiy davlatlar tashkilotida ishtirok etishi mintaqaviy integratsion jarayonlarni to'ldiradi va bu jarayonni yanada faollashtirishga xizmat qiladi. Integratsion jarayonlar bir tomonlama manfaatga qaratilmasdan, balki, o'zaro teng manfaatli hamkorlikni ko'zlashi tashkilot istiqbolini belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda tashqi kuchlar manfaatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni strategik muvozanatlashtirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash uchun Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolarini "mintaqaviy yopiqlik" konsepsiyasi asosida rivojlantirish zarur. Bu konsepsiya, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, tashqi kuchlar ta'sirini minimallashtirish va Turkiy davlatlar o'rtasidagi barqarorlikni saqlash uchun asosiy mexanizmni tashkil qiladi. Shunday qilib, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zolik mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va strategik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Turkiy davlatlar tashkiloti mintaqaviy yopiq tashkilot sifatida xalqaro tashkilotlar tipologiyasiga mos keladi. U turkiy tilli mamlakatlarning tarixiy, etno-lingvistik va milliy umumiylik tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib, a'zolik masalasida muayyan mezonlarga ega. Bu jihat tashkilotga boshqa yirik mintaqaviy kuchlarning qo'shilishini cheklab, uning doirasida kuchlar muvozanatini saqlab qolish imkonini beradi.

III-BOB. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA O‘ZBEKISTONNING KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIGI RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

3.1. Turkiy davlatlar tashkilotida O‘zbekiston Respublikasining ko‘p tomonlama hamkorligi yo‘nalishlari

Hozirgi kunda xalqaro maydonda globallashuv bilan bir qatorda mintaqaviylashuv jarayoni ro‘y bermoqda. Ma’lumki, mintaqaviylashuv muayyan mintaqaning koordinatsiya (mintaqaviy hamkorlik) va subordinatsiya (integratsiya) asosida Yaqinlashuvini nazarda tutadi. Koordinatsiya o‘zaro mintaqaviy hamkorlik asosida davlatlarning bir birlari bilan aloqalarni amalga oshirilishini nazarda tutsa, subordinatsiya muayyan organning integratsiyaga a‘zo bo‘lgan davlatlardan yuqorida turishini anglatadi.

Qadim zamonlardan buyon turkiy xalqlar, sivilizatsiyalar, Sharq va G‘arb, Shimol va Janub, shuningdek, sivilizatsiyalar o‘rtasida jonli ko‘prik sifatida muhim rol o‘ynagan. Buyuk Ipak yo‘lining asosiy elementi bo‘lib ham xizmat qilgan.

Turkiy davlatlar tarix davomida davlatlararo tijorat faoliyatida hal qiluvchi rol o‘ynagan, shuningdek, Yevropadan Xitoygacha bo‘lgan ulkan hududda Sharq va G‘arbning siyosiy va madaniy ko‘prigi bo‘lib xizmat qilgan.¹

Turk dunyosi uzluksiz transformatsiya jarayonining boshida turadi. Yevroosiyo mintaqasining xalqaro siyosiy, iqtisodiy, savdo va madani-

¹ <https://turkicstates.org/assets/pdf/haberler/special-publication-turkic-council-10th-anniversary-of-the-nakhchivan-agreement-1909-38.pdf>

yatdagi tarixiy roli katta. Turkiy davlatlar tashkiloti yetakchilari tomonidan shakllantirilgan konsepsiya: turkiy sivilizatsiya qadriyatlariga ulugʻvorlik baxsh etish va ulugʻvorlik bilan turkiy dunyoning yanada rivojlanishi, tashkilotning faoliyatiga bogʻliq.

Turkiy davlatlar tashkilotini tuzish gʻoyasi sammitlar boshlanganidan atigi 17 yil oʻtib amalga oshirishining oʻziga xos sabablari bor. Birinchidan, Qozogʻiston va Ozarbayjondagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik toʻlaqonli tashkilot boʻlish uchun asos boʻldi. Bu mamlakatlar Tashkilotda oʻzaro birgalikda mustaqil va suveren davlat sifatida jahon miqyosida tashqi va xavfsizlik siyosatida tajriba orttirdi. Ikkinchidan, turkiy davlatlar oʻrtasida energetika va transport loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ular oʻrtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirdi. Uchinchidan, turkiy tilli davlatlar oʻrtasidagi mustahkam aloqalar tashkilotning vujudga kelishida muhim rol oʻynadi, bu aloqalar Turkiy davlatlar tashkiloti modelining asosiga aylandi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda shuni tushunish kerakki, tashkilot ishlab chiqilganidan to amalga oshirishgacha boʻlgan 17 yil vaqt ancha uzoq deb baholanadi. Oʻlis tarixdagi (asrlar va ming yillar avval) madaniy va etnik asosdagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya gʻoyalari va umumiy oʻtmish hayoti nega hozirgi vaqtda iqtisodiy oʻsish va siyosiy taʼsirni taʼminlamasligini tushunish uchun soʻnggi oʻn yilliklar tarixiga murojaat qilaylik.

Turkiy davlatlar XX-asrda Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan holda, Sovet milliy va moliyaviy budjetlararo qoʻmitasi ostida siyosatini olib bordi. Bunda ijobiy tomonlari borligini koʻpchilik eʼtirof etsada, toʻlaqonli qaramlik oʻz natijasini koʻrsatdi. 1980-yillarning ikkinchi

yarmida ortiqcha o'zgarishlar bo'lmaganda va markazdan (Moskva) viloyatlarga yordam sezilarli darajada kamaytirilganda ham turkiy respublikalar rahbariyati Sovet Ittifoqidan ajralib chiqishga harakat qilmadi. Boltiqbo'yi davlatlari birinchi bo'lib bu sa'y-harakatlarni ko'rsatdi.¹

SSSRning parchalanishiga olib kelgan Belovej shartnomasi imzolangandan so'ng (1991-yil 17-martdagi ittifoq referendumiga qaramay) barcha sobiq Sovet respublikalari tomonidan Olma-Ota protokoli imzolandi². Ushbu hujjat isloh qilingan iqtisodiy makonda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur huquqiy asos bo'ldi.

Ijtimoiy hayotda Yangicha o'zgarishlar sodir bo'la boshladi lekin neft va gaz quvurlari, temir yo'llar va zavodlar eski qarovsiz holatda yotardi. Iqtisodiy hisob-kitob va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan kelib chiqadigan bo'lsak, chiroyli siyosiy shiorlar jamiyat foydasiga xizmat qilmay, iqtisodiy tazallulga yuz tutishi namoyon bo'ldi.

Sovet respublikalari o'zlarining qarorlari suverenitetni qabul qildilar (1990-1991), SSSR xalqaro huquq subyekti sifatida va geosiyosiy mavjudligi to'xtatildi. SSSR parchalangandan so'ng, keng ko'lamli inqiroz sharoitida sobiq Ittifoqning vorisi sifatida Rossiya xalqaro jarayonlarga ta'sirini susaytirdi. Asosan rus-turk munosabatlarining asosi (maqomi) o'zgardi, ya'ni muzokaralarda

¹ Достонжон Тожиев (2023). Туркия ва Ўзбекистон ўртасидаги дипломатик aloqalarнинг янги bosqichi. *Alfraganus*, (2 (2)), 40-45.

² Малышев Дмитрий Валерьевич (2019). СОДРУЖЕСТВО НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ: ПРОСТРАНСТВЕННО-ОРГАНИЗАЦИОННАЯ ДИНАМИКА. Анализ и прогноз. Журнал ИМЭМО РАН, (3), 23-36.

da'vo va yon berishlarda, huquqiy va yakuniy xalqaro hujjatlardagi majburiyatlar o'zgacha tus oldi.

Xalqaro munosabatlarda postsovet davlatlari ko'pincha mintaqadan tashqaridagi siyosiy hamkorlar bilan o'z muammolarini hal qilish istagi ustunlik qiladidigan "ko'p vektorli" siyosiy yo'nalishga amal qiladilar, "Soddalashtirilgan tashqi siyosiy ustuvorliklarni almashtirish, tasdiqlangan va uzoq muddatli munosabatlar asosida qurilgan muddatli milliy manfaatlar" yo'nalishida davom etadi.

"SSSR miqyosidagi super kuch sifatida Rossiya endi derjava davlati emas va 70 million aholiga va ko'p jihatdan nisbatan rivojlangan iqtisodiyot ega Turkiya Rossiya bilan birgalikda Yevroosiyo mintaqasidagi eng yirik davlat maqomida ekaniga butun dunyoni ishontirmoqda"¹.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng turkiy tilli davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ittifoqi mintaqaviy geosiyosatning kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Turkiyaning Sovet davridagi Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan tutgan pozitsiyasi aniq edi. NATO a'zosi sifatida Turkiya SSSR parchalanishi mumkin bo'lgan potensial Yaqin madaniy aloqalarni yodda tutgan holda Moskva bilan ehtiyotkorlik bilan muomala qilishga harakat qildi.

Markaziy Osiyo davlatlari ham mustaqillikdan keyin o'zlarining integratsion tuzilmalarini tuzishga uringanliklari, bunday tashkilotlarni o'zaro ishonch va bag'rikenglik tamoyillariga asoslanganini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi haqida so'z borar

1 Малинова О.Ю. (2013). Конструирование смыслов: исследование символической политики в современной России. Конструирование смыслов: исследование символической политики в современной России, (2013), 1-421.

ekan, bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari katta amaliy ahamiyatga ega: “Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi va ichki xatarlarning yoyilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning oldini olish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining sa’y-harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi”.

Mustaqil turkiy davlatlarni birlashtirgan xalqaro siyosiy tashkilot tuzish to‘g‘risidagi gap-so‘zlar 1990-yillardan beri davom etdi. Bunday tashkilotni yaratish bo‘yicha faol ishlar 2000-yillarning o‘rtalarida Turkiya, Ozarbayjon va Qozog‘istonning faol ishtirokida boshlangan. 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya prezidentlari “Naxichevan bitimi”ni imzoladilar, unga ko‘ra “Turkiy kengash” xalqaro tashkiloti rasman tashkil etildi. Shunday qilib, 6 turkiy davlatdan 4 tasi tashkilotga kirdi.

Naxichevanda bo‘lib o‘tgan sammitda tashkil etish to‘g‘risida Bitim imzolanganidan so‘ng Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi yoki Turkiy kengash faoliyati boshlandi. Biroq, bu shartnoma faqat 2010-yil noyabr oyida kuchga kirdi va shuning uchun Turkiy kengashning birinchi rasmiy sammiti 2010-yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan Istanbul sammiti emas, balki 2011-yilda Olmaota shahrida bo‘lib o‘tgan yetakchilar yig‘ilishi hisoblanadi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga rasman to‘rtta turkiy davlat asos soldi: Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya. 2018-yil 30-aprel O‘zbekiston tashkilotga rasman qo‘shilganiga qaramasdan,

Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining sammitlarida norasmiy ishtirok etib kelgan.¹

2018-yil 30-aprel kuni O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo bo‘lishi va tashkilotning Bishkekda bo‘lib o‘tadigan sammitida ishtirok etishi ma‘lum qilingan edi. A‘zolik arizasi 2019-yil 12-sentabrda rasman topshirilgan.

2021-yil 12-noyabr kuni Istanbulda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining VIII sammitida Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘on Turkiy kengash Turkiy tilli davlatlar tashkiloti deb o‘zgartirilganini e‘lon qildi.

Turkiy davlatlar hamkorligi kengashi hozirda O‘zbekistonning tashkilotga rasman qo‘shilishi asnosida Turkiy davlatlar tashkiloti deya atalishi tashkilotni Yangi bir pog‘onaga ko‘tarilganini izohlaydi. Hozirda tashkilot Sharq va G‘arb o‘rtasidagi munosabatlarga Yangi tushunchalar kiritishi mumkin bo‘lgan tarixiy tiklanish yoqasida turibdi.

Shubhasiz, Sharq va G‘arb munosabatlarida Yangi tushuncha va muqobillik zarurati tashkilotga bo‘lgan qiziqishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Yangi Ipak yo‘li, bir kamar va yo‘l tashabbusi yoki turkiy tilli davlatlarning kelajakdagi iqtisodiy ittifoqi kabi tashabbuslari ko‘p voqeliklarni o‘zgartirishi mumkin.

Sovet Ittifoqining parchalanishi mintaqaga o‘zgarishlar shamolini olib kelgan ekan, endi Turkiy davlatlar mintaqaviy geosiyosatda Yangi voqe‘likni qurishi va umumiy manfaat, tinchlik, dunyoda farovonlik va

¹ <https://www.turkicstates.org/en/turk-konseyi-hakkinda>

hamkorlik yo'lida yagona turkiy hamkorlik orzularini amalga oshirishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich quyidagicha ta'kidlagan: "Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.¹" Shundan ko'rinib turibdiki, har qanday vaziyat manfaatlarga mos kelgandagina natijali bo'ladi.

Turkiy davlatlar tashkilotining maqsad va vazifalari Naxichevan kelishuvida belgilab berilgan. Tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

- tomonlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash;
- mintaq va dunyoda tinchlikni saqlash, xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash;
- umumiy manfaatlarga ega bo'lgan tashqi siyosat masalalari bo'yicha umumiy nuqtai nazarlarni izlash, shu jumladan xalqaro tashkilotlar doirasida va xalqaro forumlar doirasida ham;
- xalqaro terrorizm va separatizm, ekstremizm, odam savdosi, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish, shuningdek yordam ko'rsatish.

¹ Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: O'zbekiston nashriёти, 2021. Б. 4.

— siyosiy, savdo-iqtisodiy, huquqni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy, ilmiy-texnikaviy, harbiy-texnik, ta'lim, energetika, transport, kredit-moliyaviy va umumiy manfaatlarining boshqa sohalari bo'yicha samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rag'batlantirish;

— savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, bundan keyin tovarlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda moliya-bank operatsiyalarini soddalashtirish maqsadida bojxona va tranzit tartib-qoidalarini soddalashtirish;

— har tomonlama va muvozanatli iqtisodiy o'sishga intilish;

— xalqlarining turmush sharoiti darajasi va yaxshilanishini izchil oshirish maqsadida teng huquqli sheriklik asosidagi birgalikdagi harakatlar orqali mintaqada ijtimoiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish;

— qonun ustuvorligini ta'minlash masalalarini muhokama qilish, samarali xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlariga muvofiq inson huquqlari va asosiy erkinliklarini boshqarish va kafolatlarini ta'minlash;

— fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, yoshlar, sport va turizm sohasida hamkorlikni kengaytirish, buyuk turkiy xalqlarning madaniy va tarixiy merosini keng yoyish;

— ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligini va tomonlar o'rtasidagi aloqalarni targ'ib qilish, turkiy xalqlarning madaniy va tarixiy merosi ommalashtirish va tarqatishda rag'batlantirish;

— rivojlanish uchun huquqiy axborot almashinuvini muhokama qilish, huquqiy munosabatlarning turli sohalarida huquqiy yordam va o‘zaro hamkorlik qilish.

Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, yigirmadan ortiq turli yo‘nalishlarda hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Turkiy davlatlar tashkilotida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorliklar olib boriladi: Siyosiy hamkorlik, Iqtisodiy hamkorlik, Bojxona bo‘yicha hamkorlik, Transport hamkorligi, Turizm sohasidagi hamkorlik, Ta’lim bo‘yicha hamkorlik, Axborot va media sohasidagi hamkorlik, Yoshlar va sport bo‘yicha hamkorlik, Millatlararo hamkorlik, IT sohasidagi hamkorlik, Energetika sohasidagi hamkorlik, Sog‘liqni saqlash bo‘yicha hamkorlik, Migratsiya sohasidagi hamkorlik, Qishloq ho‘jaligi sohasidagi hamkorlik, adliya Sohasidagi hamkorlik, Gumanitar masalalar va rivojlanish bo‘yicha hamkorlik, Inson resurslari sohasida hamkorlik, Musulmon diniy idoralari o‘rtasidagi hamkorlik, Kosmik sohadagi hamkorlik, Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.¹

Turkiy davlatlar tashkilotida o‘ta qudratli bo‘lgan va hammaga ta’sir o‘tkazadigan davlatlar mavjud emas. Bu yerda birodarlik, tarixiy o‘zlik va hamkorlikka bo‘lgan ehtiyoj haqiqatan ham kuchli. Turkiy davlatlarning hamkorligi tarixiy vaziyat taqozo qiladigan bir holat. Bu davlatlarning har birida kuchli va boshqalarga ehtiyojlari bo‘lgan nuqtalar mavjud.

Bugungi kunda Naxichevan koridori turkiy davlatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lashi bilan juda ahamiyatga ega. Ikkinchidan tomondan,

¹ <https://www.turkicstates.org/en/isbirligi-alanlari>

logistik masalasida uchraydigan byurokratik to'siqlarni olib tashlash uchun bu mamlakatlarda imkoniyatlar bisyor. Shuningdek, tashkilot iqtisodiyotdan turizm, yoshlar va sportgacha bo'lgan turli sohalarda hamkorlikni, xususan siyosiy hamkorlikni o'z ichiga olgan Turkiy davlatlar tashkiloti shu kunga qadar 6 ta sammit, 13 ta tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari va 50 ta vazirlarning uchrashuvlarini tashkil etdi.

Tashkilot shuningdek, 130 dan ortiq ishchi guruhlar va ekspertlar uchrashuvlari, 25 ta konferensiyalar, forumlar, kasb-hunarga o'qitish dasturlari bilan yoshlar lagerlari va festivallarini amalga oshirdi, ularning aksariyati xalqaro darajada o'tkazildi.

Vazirliklar va a'zo davlatlarning tegishli muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar doirasida shu kungacha 25 ta kelishuv va o'zaro anglashuv memorandumlari imzolandi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi Yaqin hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga muqobil platformalarga ega bo'lish, Rossiya va Xitoy ta'sirini Turkiya yordamida qisman muvozanatlash imkonini beradi. Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya biznes hamjamiyatlaridan faol foydalanish orqali iqtisodiyotlarning o'zaro to'qnashuvi mintaqaviy hamkorlikning motoriga aylanadi. Turkiy davlatlar tashkiloti Yevropa ittifoqi darajasidagi tashkilotga ko'tarilib chuqur integratsiyaga kirishi to'g'risida so'z olib borishga hali juda erta. Tashkilot doirasida hamkorlikning birinchi bosqichida iqtisodiy hamkorlik, transport yo'laklarini yaratish, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish uchun texnologiyalar almashinuvi masalalariga ko'proq e'tibor qaratilsa, bu

sarmoyaviy hamkorlik manfaatlariga, ushbu mamlakatlar manfaatlariga javob beradi. Shundan so‘nggina ma’lum vaqt o‘tganidan keyin huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorligi, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik va hokazolarni ko‘rib chiqish mumkin. Tashkilotni taraqqiy ettirishda Markaziy Osiyodagi mintaqaviy tashkilotlar bilan raqobatchi sifatida emas, balki, hamkorlik orqali rivojlanish yo‘lini tanlash lozim.

Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro maydondagi ko‘rinishi va obro‘cini yanada oshirish maqsadida ko‘plab xalqaro tashkilotlar, xususan Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) va uning organlari bilan hamkorlik o‘rnatildi. 2019-yil 31-may kuni Makkada bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) sammitida Turkiy davlatlarning 8 yillik kuzatuvchilarga a‘zolik arizasini yakunlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.¹

Tashkilot transport va logistika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu yo‘nalish qabul qilingan “Turk dunyosining nigohi – 2040” strategik hujjatida alohida o‘rin tutadi.

Barcha sa’y-harakatlar markazida turkiy davlatlarning transport aloqadorligini ta’minlash yotadi. Shu nuqtai nazardan, Transkaspiy xalqaro o‘rta koridorini Sharq va G‘arb o‘rtasidagi eng qisqa, xavfsiz va raqobatbardosh transport aloqasiga aylantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tashkilotning yana bir vazifasi – transport hamkorligining huquqiy asoslarini takomillashtirish. Xususan, tashkilot doirasida Kaspiy dengizi orqali transport operatsiyalarini amalga oshirish uchun qulay

¹ https://president.uz/uz/lists/view/6831?utm_source

shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qo'shma transport to'g'risidagi hukumatlararo bitim loyihasini ishlab chiqish.

Tashkilot O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida xalqaro avtomobil tashuvlari to'g'risida shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralar jarayonlariga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Joriy yilning aprel oyida mazkur hujjat matnini kelishish uchun ikki davlat ekspert uchrashuvlari tashkil etildi.

Tashkilot savdo-iqtisodiy sohada o'zaro hamkorlik qilishda a'zo davlatlarning ayrimlari allaqachon yagona iqtisodiy zonani tashkil etishga qaratilgan boshqa integratsiya jarayonlarida ishtirok etmoqda. "Turk dunyosi 2040" ko'rinishida ko'zda tutilgan uzoq muddatli istiqboldagi asosiy maqsad a'zo davlatlar o'rtasida tovarlar, kapital, xizmatlar, texnologiya va odamlarning erkin harakatlanishiga erishishdir.

Mamlakatlar o'rtasida migratsiya tartibini soddalashtirish uchun tegishli huquqiy asos allaqachon mavjud. Masalan, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston fuqarolari Turkiyada 90 kungacha vizasiz qolishlari mumkin. Shuningdek, Turkiya fuqarolari Ozarbayjon va Qirg'izistonda 90 kungacha, Qozog'iston va O'zbekistonda esa 30 kun bo'lishlari mumkin.

Hozirda soddalashtirilgan migratsiya tartibi to'g'risida ko'p tomonlama shartnoma imzolashga shoshilinch ehtiyoj yo'q. Biroq qonuniy mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish bo'yicha shartnoma imzolash imkoniyati mavjud. Bu amaliyot O'zbekiston va Turkiya o'rtasida allaqachon mavjud.

So‘nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikda ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2016-yilda ichki-mintaqaviy savdo aylanmasi 11,1 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda 20,2 milliard dollarga, 2021-yilda esa 21 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatlarida sanoat sur‘atlarining yillik o‘sishi o‘rtacha 8-12 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi deyarli 24 foizni tashkil etadi.¹

Tashkilotning mazkur sohadagi yana bir ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu – oziq-ovqat inqirozining oldini olishdir. Buning uchun oziq-ovqat kooperatsiyasini rivojlantirish, mamlakatlarning agrosanoat sohasidagi salohiyatidan foydalanish zarur. Xususan, qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish, agroklasterni rivojlantirish, fermerlarni qo‘llab-quvvatlash, agrosanoatni rag‘batlantirish lozim. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur masalaga alohida e‘tibor qaratib, tadbirkorlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ishonchli aloqalarni o‘rnatish uchun eng qulay sharoitlar yaratishni ustuvor vazifa deb qayd etgan. Shu borada qo‘shma texnoparklar, startap innovatsiya kompaniyalari va venchur jamg‘armalari tashkil etish, qo‘shma investitsiya fondi va turkiy davlatlar savdo uylarini birgalikda barpo etish singari tashabbuslar avvalgi surildi. Turkiy davlatlar hamkorligining yana bir ustuvor yo‘nalishi energetika sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir.

Shu nuqtai nazardan a‘zo mamlakatlar energiya salohiyatini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha sa’y-

¹ <https://ereforms.gov.az/files/publications/pdf/en/340c19f58b572075d651ff4f4b1b6dd7.pdf>

harakatlari muhim ahamiyatga egadir. Transport yo‘laklarini rivojlantirish va logistika infratuzilmasini yaratish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish turkiy davlatlar makonidagi strategik hamkorlikning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, a‘zo mamlakatlar manfaatlari uchun muhimdir. Transport va logistika tarmoqlarini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash, iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror o‘shishni ta‘minlash va barcha turkiy davlatlarning sarmoyaviy jozibadorligini oshirishda ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, tashkilot turkiy mintaqada xalqlar o‘rtasidagi turizmni rivojlantirishga ayniqsa katta ahamiyat qaratadi. Ushbu sohada “Zamonaviy ipak yo‘li” maxsus qo‘shma loyihasi ishga tushirilgan bo‘lib, u a‘zo mamlakatlarning madaniy va tarixiy shaharlariga 14 kunlik sayohatni o‘z ichiga oladi. Tashkilot yoshlarga sayohat qilish, tengdoshlari bilan uchrashish va turli sohalarda zamonaviy va istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun Yangi imkoniyatlar yaratdi.¹

Hozirda Turkiy davlatlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo va Turkiya, o‘z hududidagi ekologik muammolarga qarshi kurashishda qo‘shma harakatlar talab qiladi. Har bir davlatning ekologik manfaatlari ushbu davlatlarning o‘ziga xos geografik va iqtisodiy holatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Masalan, Qozog‘iston va Qirg‘iziston suv resurslariga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy ehtiyojlarga ega, shuningdek, ularning suv havzalarini boshqarish masalalari mintaqaviy hamkorlikni taqozo qiladi. Turkiya esa, suv, energiya va atrof-muhitni muhofaza

¹ Расулев , А., Иззатуллаев , Б. и Расулева , И. 2022. Приоритетные направления сотрудничества Организации тюркских государств и роль Узбекистана. Общество и инновации. 3, 9/S (окт. 2022), 9–15. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss9/S-pp9-15>.

qilish bilan bog‘liq masalalarda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga yo‘naltirilgan tashabbuslarga ega.¹

“Turkiy davlatlar ekofondi”ning tashkil etilishi bu masalada muhim qadam bo‘ladi. Bu fond ekologik va iqlim muammolarini hal qilishda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, tabiiy ofatlardan jabrlangan mamlakatlarga yordam ko‘rsatish, suv resurslarini oqilona boshqarish va havo, suv va yer resurslarini saqlashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish uchun yordamchi mexanizm bo‘ladi.

"Turkiy davlatlar ekofondi"ning asosiy maqsadi — ekologik va iqlim muammolarini hal qilish, tabiiy ofatlarda birgalikda yordam ko‘rsatish, suv resurslarini boshqarish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash. Bu fond quyidagi mexanizmlar orqali ishlaydi:

Suv resurslarini boshqarish — Turkiy davlatlarining suzish, suv xo‘jaligi va yer maydonlarini o‘zaro kelishib boshqarish.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish — Iqlim o‘zgarishini yo‘qotishga qaratilgan investitsiyalar va ilmiy tadqiqotlar olib borish.

Tabiiy ofatlarga yordam — Ofati bor davlatlarga gumanitar yordam ko‘rsatish, shuningdek, ofatlarga qarshi o‘zaro kurashish.

Ekologik ta‘lim va ma‘lumot almashish — Ekologik samaradorlikni oshirish uchun regiondagi hamkorlikni kuchaytirish.

Turkiy davlatlar ekofondini tashkil etish orqali shu kabi ekologik muammolarni barqaror hal qilish uchun barcha davlatlarning manfaatlari va talablarini muvofiqlashtirish mumkin. Shuningdek, bu

¹ Назаров, А. (2020). Туркий давлатларининг экологик интеграцияси. Туркий давлатлар ташкилоти: Геосиёсий ва иқтисодий таҳлил. Тошкент: Экономика нашриёти.

fond, mintaqa davlatlari orasida iqtisodiy, ekologik va siyosiy manfaatlarning muvozanatini ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti samarali xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlariga muvofiq inson huquqlari va asosiy erkinliklarini boshqarish va kafolatlarini ta'minlash orqali a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, huquqni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy, ilmiy-texnikaviy, harbiy-texnik, ta'lim, energetika, transport, kredit-moliyaviy va umumiy manfaatlarning boshqa sohalari bo'yicha samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rag'batlantirishni amalga oshiradi.

3.2. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari

Hozirda O'zbekiston a'zolidan so'ng Turkiy davlatlar tashkilotiga o'zgargan tuzilma faoliyatida jonlanish sezilmoqda va ushbu tashkilotga qiziqishlar ortmoqda. O'tgan yillar davomida mazkur tuzilma hamkorlikni chuqurlashtirish asosi bo'lmish institutsional mexanizmlarni yaratish bilan ko'proq shug'ullandi. Bu hamkorlikni qandaydir tarzda muvofiqlashtirish va rivojlantirish uchun ichki mexanizmlarni tartibga solish, ba'zi institutsional elementlarni yaratishga ko'proq e'tibor qaratildi. Kotibiyat faoliyati yo'lga qo'yildi va mazkur tashkilot doirasida ko'plab parallel formatlar mavjud. Shuningdek, Ozarbayjonda bo'lib o'tgan bosh prokurorlarning uchrashuvlarini misol qilib keltirish mumkin. Tashqi ishlar va madaniyat vazirlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning boshqa darajalarini ham jamlagan.

Turkiy davlatlar tashkiloti o'zining boy tarixi, qadriyatlari, madaniyati va tili bilan mintaqadagi davlatlar uchun mustahkam, uyg'un va ma'naviy jihatdan birlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Turkiy xalqlarining umumiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosi ularni nafaqat geosiyosiy, balki madaniy va ma'naviy jihatdan ham Yaqinlashtiradi. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida milliy va turkiy qadriyatlarni targ'ib qilish, ularning ongida turkiy o'ziga xoslikni saqlash, shuningdek, ma'naviy muhitni turkiy qadriyatlar asosida rivojlantirish muhim masalaga aylanmoqda.

Turkiy xalqlarining umumiy tarixi va madaniyati, ularning an'analarini, urf-odatlarini, tilini va ma'naviy qadriyatlarini birlashtirish muhim vazifalardan biridir. Markaziy Osiyo, Kavkaz va Turkiyaning turkiy tilli xalqlari o'z orqali boy ma'naviy va madaniy merosga ega bo'lib, ularning umumiy xissi yoshlar o'rtasida turkiylikni, milliy o'zlikni his qilishga yordam beradi. Turkiy xalqlarining umumiy o'tmishi va madaniyatlari ularga o'zaro aloqalarni va hamkorlikni yanada mustahkamlashga imkon yaratadi.¹

Shuningdek, bu birlik, turkiy xalqlarining yoshlari o'rtasida adabiy va san'at asosida birdamlik, bir-birining madaniyatini qadrlash va hurmat qilish hissini targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.² Masalan, turkiy xalqlarining o'zining xos madaniy merosini yoshlarga yetib borishi uchun umumiy platforma tashkil etish talab etiladi. Bu

¹ Туркиева, М. (2019). Туркий давлатларининг умумий маданий мероси. Маданият ва урф-одатлар журналі, 7(2), 23-35.

² Исмаилов, Т. (2021). Туркий халқларининг умумий тарихи ва маданияти. Туркий халқаро тадқиқотлар маркази, 12(3), 45-60.

maqsadga erishish uchun Turkiy davlatlarining ma'naviy, madaniy va ta'lim sohasidagi hamkorligini kuchaytirish zarur.

"Turkiy davlatlar ma'naviyat va ma'rifat kengashi"ni tashkil etish, mazkur kengash turkiy xalqlarning umumiy ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qilish, yoshlarning milliy va turkiylik identifikatsiyasini shakllantirish, va ularning ta'lim-tarbiya sohasidagi rivojlanishini ta'minlashga imkon yaratadi. Turkiy davlatlar ma'naviyat va ma'rifat kengashi turkiy xalqlarining tarixi va madaniyatini himoya qilish, ularning ma'naviy qadriyatlarini saqlash va yoshlarning ma'naviy ongini shakllantirishga qaratilgan muhim kengash bo'ladi.

Turkiy davlatlar ma'naviyat va ma'rifat kengashi yoshlar o'rtasida turkiy xalqlarining umumiy merosi va qadriyatlarini mustahkamlash uchun muhim mexanizm bo'lishi mumkin. Bunday kengash yoshlarga turkiy xalqlarning umumiy madaniy va ma'naviy merosini o'rganish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, kengash turkiy xalqlarining Yangi avlodini o'z milliy qadriyatlarini his etishga, o'z tarixini, madaniyatini va tilini qadrlashga da'vat etadi. Shuningdek, bu kengash, turkiy madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishi, madaniy va ta'lim sohasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishi, shuningdek, turkiy xalqlarning barqaror va hamjihat rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Hozirgi geosiyosiy keskinlik va buning natijasida jahon siyosatidagi notinchlik siyosiylashtirilmagan va noharbiy tashkilotlarning ahamiyati ortib borishi uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kuchaytirish, transport-kommunikatsiya aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi Yangi muqobil yo'nalishlarni barpo etish ustuvor vazifalari

bo'lgan Turkiy davlatlar tashkiloti nafaqat markaziy davlatlari, balki mintaqaning boshqa ishtirokchilari bo'lgan XXR va Rossiya Federatsiyasini ham e'tiborini jalb qila boshladi.¹

Bugungi kunga qadar Turkiy davlatlar tashkiloti rivojlanishning bir necha murakkab bosqichlarini bosib o'tdi va a'zo mamlakatlarga siyosiy masalalardan ko'ra ko'proq iqtisodiy, transport, madaniy-gumanitar masalalarni hal etishga qaratilgan dastlabki ustuvorliklarini o'zgartirish imkonini beruvchi tarixiy tajribaga ega bo'ldi. Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti tobora jozibador bo'lib bormoqda va turli mamlakatlar unga qo'shilish yoki uning faoliyatida qatnashishga intilmoqda. 2023-yil iyul oyi oxiri holatiga ko'ra, 15 davlat tashkilotga kuzatuvchi sifatida qo'shilishdan manfaatdor ekanini ma'lum qilgan.

Aytilgan vazifalardan kelib chiqadigan bo'lsak, ayniqsa, savdo-iqtisodiy sohada istiqbolni ko'rish mumkin. Yevroosiyo makonidagi boshqa ko'plab tashkilotlar singari hozircha pozitsiyalardagi tafovut hisobga olinsa, u yakuniy maqsad nima ekanini aniq belgilay olmaydi.

Turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim jihati hisoblanadi. 2019-yilda O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston va Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatlarini azaldan nafaqat madaniyat, til, ma'naviyat mushtarakligi, balki an'anaviy do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlar bog'lab turadi. O'zbekiston tashkilotning birinchi navbatda savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, turizm, madaniy gumanitar almashinuvlar kabi dolzarb yo'nalishlarda amaliy sheriklikni

¹ <https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/9834/>

rivojlantirishga ko‘maklashuvchi samarali mintaqaviy tuzilma sifatida baholaydi.¹

Tashkilot doirasida hamkorlikni rivojlantirish mumkin. Bu integratsiya bo‘ladimi yoki qandaydir sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishmi, xullas, o‘zaro fikr almashinuv uchun qulay platforma bo‘lib xizmat qiladi. Qandaydir chuqur integratsiya haqida hali biror narsa deyish qiyin. Ammo ushbu bosqichda a’zolar tashkilot doirasidagi bunday integratsiyaga tayyor emasligi aniq. Shunga qaramay, gap bu yerda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, ayrim tashabbuslarni avvalgi surish va muayyan tashqi siyosiy vazifalarni bajarish uchun bir-birining imkoniyatlaridan foydalanish haqida ketmoqda. Eng asosiysi, mazkur tashkilot Yevroosiyo­ning keng makonida mavjud boshqa mintaqaviy tashkilotlarning u qadar ijobiy bo‘lmagan tajribasini takrorlamasligidir.

Bugungi kunda 173 milliondan ortiq aholini qamrab olgan Turkiy davlatlar tashkiloti yirik bozor bo‘lib, a’zo davlatlar va kuzatuvchilarning umumiy yalpi ichki mahsuloti taxminan 1,4 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Jahon yalpi ichki mahsulotidagi Turkiy davlatlar tashkiloti a’zolarining umumiy yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 1,4 foizni, ma’lumotlarga ko‘ra YAIM 4,5 trillion AQSH dollarini (dunyoning 3%) tashkil etadi.

Qayd etish joizki, Turkiya Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan ikki tomonlama aloqalarni faol mustahkamlamoqda, buning natijasida tovar ayirboshlashda jadal o‘shish kuzatilmoqda. Turkiya mintaq bilan ijobiy savdo balansiga ega, faqat Qozog‘iston bilan

¹ Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: O‘zbekiston nashriёти, 2021. Б.354.

salbiy savdo balansi mavjud. Hatto pandemiya Turkiyaning mintaqaga eksportiga ta'sir qilmadi.

Markaziy Osiyo bilan umumiy chegaralar yo'qligiga qaramay, Turkiya mintaqaning eng muhim savdo sheriklaridan biriga aylanmoqda. U o'z eksportini sezilarli darajada oshirdi va Markaziy Osiyodan ko'proq tovarlar sotib oldi va alohida tranzit mamlakatlarga qaramlikni kamaytirish uchun transport yo'nalishlarini muvaffaqiyatli diversifikatsiya qildi, chunki ularning aksariyati mintaqaviy bozor uchun u bilan raqobatlashadi. Turkiya o'sib borayotgan bozor bo'lgani uchun Turkiya bilan savdo qilish Markaziy Osiyo uchun ham foydali. Shunday qilib, mintqa davlatlari Turkiyani eksportni diversifikatsiya qilishning muqobillaridan biri deb hisoblaydi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi Yaqin hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga muqobil platformalarga ega bo'lish, Rossiya va Xitoy ta'sirini Turkiya yordamida qisman muvozanatlash imkonini beradi. Bu taxminni so'nggi yillarda Turkiyaning mintaqadagi iqtisodiy va sarmoyaviy ishtirokining jadal o'sishi Anqaraning o'z mavqeini sezilarli darajada mustahkamlashiga va yetakchi beshlik yetakchi savdo hamkorlari qatoriga kirishiga yordam bergani bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, turk kompaniyalari bozorda, xususan, O'zbekistonda faol ishtirokchilar hisoblanadi. 2022-yilda Turkiya mamlakatdagi kompaniyalar soni bo'yicha Xitoyni ortda qoldirdi (mos ravishda 2204 va 2141)¹.

Bu faktlar Markaziy Osiyo uchun ham, jahon iqtisodiyoti uchun ham juda ahamiyatli bo'lib, turkiy dunyo davlatlari o'rtasidagi

¹ <https://uz.tafsilar.info/novosti-uzbekistana/ta-lilchilar-turkiy-davlatlar-tashkilotini-tuzish-mu-imligini-ajd-jetdilar/>

hamkorlik rivojlanib borgan sari bu ahamiyat yanada ortadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya biznes hamjamiyatlaridan faol foydalanish orqali iqtisodiyotlarning o‘zaro to‘qnashuvi mintaqaviy hamkorlikning motoriga aylanadi. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi o‘zaro Yaqinroq hamkorlik jahon iqtisodiy jarayonlarining xomashyo chekka zonasida qolib ketmaslik uchun Markaziy Osiyo doirasidagi mintaqaviy hamkorlikni tezlashtirishi mumkin. Bu hamkorlikning asosini mintaqaning ikki yirik davlati – Qozog‘iston va O‘zbekistonning o‘zaro hamkorligi tashkil qilishi mumkin. Bu davlatlar o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning (2022-yil 22-dekabr) imzolanishi ikki davlatning niyatlarini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Tashkilotda huquqiy yordam sohasida hamkorlik yoki, masalan, MDH davlatlari doirasidagi erkin savdo zonasi (ular vaqti-vaqti bilan ishlaydi, chunki kelishmovchiliklarni hal qilish va ayrim munozarali masalalarga yechim topish)ning aniq mexanizmlari mavjud emas. U yerda juda ko‘p hujjatlar qabul qilindi, lekin amalda ularning kichik bir qismi bajarildi.

Turkiy mamlakatlar Yangi tashkilotining asosiy vazifasi shundaki, endi son emas, balki sifat ustida ish olib boriladi. A‘zo davlatlar manfaatlariga mos keladigan sohalarga e‘tibor qaratish va bu boradagi asosiy yo‘nalishlarga urg‘u berish lozim. Agar ushbu sohalarda yaxshi natijalarga erishilsa, bugungi kunda ustuvor bo‘lgan boshqa sohalarni rivojlantirish osonroq kechadi. Masalan, birinchi bosqichda iqtisodiy hamkorlik, transport yo‘laklarini yaratish, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish uchun yashil texnologiyalar

almashinuvi masalalariga ko‘proq e‘tibor qaratilsa, bu sarmoyaviy hamkorlik manfaatlariga, ushbu mamlakatlar manfaatlariga javob beradi. Shundan so‘ng huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorligi, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik va hokazolarni ko‘rib chiqish mumkin.

Asosiysi, birinchi bosqichlarda kuch-g‘ayratni sarflab yubormaslik, muhim sohalarda muvaffaqiyatga erishgachgina, boshqa sohalarda ham muvofiqlashtirishni kengaytirish lozim. Umuman olganda, kelgusida nima lozimligini aniqlab olgach, yanada rivojlanish sari harakat qilish lozim.

Tashkilotning Yangicha faoliyati O‘zbekiston uchun manfaat qanday darajada ekani savol ostida qolmoqda. Mamlakatimizning ko‘p vektorli tashqi siyosatiga, ya‘ni mintaqamizda qandaydir yirik ishtirokchiga qaram bo‘lmaslik uchun muvozanatli tashqi siyosat yuritish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga juda mos.

Ushbu mantiq nuqtai nazaridan, mazkur tashkilotda ishtirok etish O‘zbekiston manfaatlariga mos keladi. Bu faqat Rossiya va Xitoy kabi an‘anaviy hamkorlarimiz yoki ma‘lum darajada Yevropa Ittifoqi, AQSH bilan birgalikda harakat qilishnigina emas, rivojlanayotgan kuchlarni ham hisobga olishimizni anglatadi. Turkiya hozir o‘z o‘rnini tobora ko‘proq namoyon qilib bormoqda va ayni paytda mintaqaviy miqyosda o‘sib borayotgan hamda o‘zi joylashgan mintaqadan tashqaridagi ko‘plab jarayonlarda ko‘proq ishtirok etayotgan muhim davlatlardan biri sifatida bo‘y ko‘rsatmoqda. Shu ma’noda, ushbu tashkilot doirasida hamkorlik qilish va mamlakat uchun nima foydali, nima ustuvor ekaniga e‘tibor qaratish biz uchun manfaatli bo‘ladi.

